

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘zbek tilshunosligi kafedrası

SHONAZAROVA DILAFRO’Zning

5.220100- "O‘zbek filologiyasi" ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavri
darajasini olish uchun yozilgan (IV-kurs 43-guruh)

**“MAJOLISUN-NAFOIS” ASARINING FONETIK VA
MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar_____ dots. Jumayev T.

"Himoyaga tavsiya etilsin"

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

mudiri_____dots. X. Jabborov

“ ” _____2012

QARSHI-2012

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi	3
Kirish	5
I bob. Alisher Navoiyning «Majolisun-Nafois » asarining fonetik xususiyatlari.....	8
1-§. “Majolisun-nafois” asari tilining fonetik bo‘laklari.....	8
2-§. «Majolisun-nafois» asarining undoshlar tizimi.....	15
3-§. «Majolisun-nafois» asari tilida uyg‘unlashuv.....	20
4-§. Tanglay uyg‘unligi.....	21
5-§. Lab uyg‘unligi.....	22
6-§. Jaranglilik va jarangsizlik uyg‘unligi.....	24
II bob. “Majolisun-nafois” asarining morfologik xususiyatlari.....	26
1-§. Ot.....	26
2-§. Sifat.....	35
3-§. Olmosh.....	37
4-§. Son.....	39
5-§. Fe‘l.....	41
6-§. Ravish.....	53
7-§. Bog‘lovchilarning qo‘llanishi.....	54
8-§. Ko‘makchilarning qo‘llanishi.....	59
9-§. Yuklamalar ning ishlatilishi.....	62
Umumiy xulosalar.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	61

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodi davomida ham badiiy, ham ilmiy, ham tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid asarlar bunyod qilib, o'zbek tilining badiiy va lisoniy imkoniyatlarining naqadar keng ekanligini isbotlab berdi. Ma'lumki, o'sha davrda o'zbek kitobxonlarining bir qismi fors-tojik tilidagi adabiyotdan bahramand bo'lsa ham, ko'pchiligi undan foydalana olmasdi. Shu sababli Alisher Navoiy: «*Bu alfoz va iboratda bu nav' daqoyiq ko'pdirkim, bu kunga degincha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmag'an jihatidin bu yashurun qolibdur... Va filhaqiqat, agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chu bu lafzda vus'at (kenglik) va maydonida muncha mus'hat (ochiqlik) topilur...*»¹ deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini mukammal bilishga chaqirdi. Demak, bobomiz Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, ona tilimizning o'rganilishga fonetik va molik imkoniyatlar azaldan bisyor, hozirgi kunda ham bu masala o'rganilishga molik mavzu hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiy ijodi fonetik, morfologik jihatdan ko'p martalab tadqiq obekti bo'lib kelgan. Shuning uchun Alisher Navoiy ijodinig eng yorqin durdonalaridan biri bo'lmish "Majolisun-nafois" asarini fonetik va morfologik jihatdan o'rganishni maqsad qilib oldik. Biz o'z ishimizda "Majolisun-nafois" asarinining fonetik va morfologik sathlari qay yo'sinda voqelanganligi tadqiq etish ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Bu masala yana shuning uchun dolzarbki, Alisher Navoiy qo'llagan lisoniy birliklar dugungi kunda ham ona tilimizning faol leksik birliklari hisoblanadi. Garchi bu birliklar hozir fonetik farqlarga ega bo'lsa ham, ayrim sinonimik birliklar iste'moldan chiqqan bo'lsa ham, ularning semantik imkoniyatlari tilimizning faol nutqiy figuralar sifatida yashab kelayotganligini ochib berish zarurati mavjud.

Ishning maqsad va vazifalari. Bu quyidagi muammolar yechimini taqozo etadi:

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining fonetik tizimi:

- a) unlilar;
- c) undoshlar;
- d) singarmonizm.

II. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari morfologiyasi:

- a) mustaqil so'z turkumlari;
- b) yordamchi so'z turkumlari.

Isnning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" asari shu paytgacha ilmiy jamoatchilik tomonidan ko'p marta o'rganilgan. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda bu asar

¹ Alisher Navoiy. "Muhokamatul-lug'atayn". Toshkent, 1948, 7-bet.

tilining fonetik jihatdan aktual bo‘linishi, morfologik jihatlarini hozirgi o‘zbek tilining imkoniyatlari bilan qiyoslab tavsiflandi.

Ishning metodologik asoslari va tahlil usullari. Ishda, asosan, tavsiflash, qiyoslash, chog‘ishtirish metodlaridan foydalanildi. Mustaqil va yordamchi so‘zlarning iste‘mol darajasini belgilashda leksik tahlil usullari qo‘llanildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy xulosalaridan o‘rta maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga Navoiy ijodini o‘qitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy oquv yurti talabalariga til tarixi fani bo‘yicha amaliy, seminar mashg‘ulotlar o‘tishda qo‘llanma bo‘lishi mumkin.

Ishning mundarijasi kirish, ikki asosiy bob, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi betni tashkil etadi.

KIRISH

“Umumiy o‘rta ta‘limdan boshlab o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘limgacha bo‘lgan bo‘g‘inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o‘z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta‘lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirilganini ta‘kidlamoqchiman”². Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimovning bu so‘zlari vatanimizda uzluksiz ta‘limga qanday e‘tibor berilayotganligidan guvohlik berib turibdi. Shuningdek, she‘riyat mulkingning sultoni, buyuk bobomiz Alisher Navoiy va uning ijodi ham hech qachon mustaqillik davridagidek qadrlanmagan. Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz: “Inson qalbining quvonchu-qayg‘usini ezgulik va hayot mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga

²Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2012-yil 20-yanvar.

muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik koʻp bahramand etsak, milliy maʼnaviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli maʼrifiy qurolga ega boʻlamiz” deb taʼkidlagan edi³.

“Mana, sal kam bir yildirki, Oʻzbekistonimizda, Oʻrta Osiyoda barcha Sharq xalqlari tomonidan nishonlanayotgan Alisher Navoiyning umr va ijod toʻylari – qutlugʻ maʼraka davom etmoqda. Bu toʻy millat bayramidir. Qadriyatimizni yana bir bor ulugʻlaydigan bayramdir.

Bu toʻy xalqimiz, Oʻzbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etadi.

Alisher Navoiy yili deb eʼlon qilingan 1991-yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlugʻ keldi va oʻz taqdirini oʻzi belgilaydigan boʻlib qoldi”⁴- deb uqtirgan edi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oʻzbekiston Milliy bogʻida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida soʻzagan nutqida. Shu bois ham Navoiy asarlarini har jihatdan oʻrganish bugungi tilshunoslirimizning ham eng dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Demak, xalqning milliy qadriyagi, dunyoqarashi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar, jumladan, badiiy-tarixiy manbalarda oʻz ifodasini topgan asarlarni oʻrganish, ularni targʻib qilish bugunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi shubhasiz. Shu bois mumtoz asarlarni tadqiq etgan, ilmiy, maʼrifiy, axloqiy-maʼnaviy qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini oʻrganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy tilning ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim oʻrin tutadi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan nafaqat oʻz zamondoshlariga, balki undan keyingi butun avlodga oʻrnak koʻrsatdi.

Sanʼat va mafkura nuqtai nazaridan Alisher Navoiy butun dunyo madaniyatiga oʻz hissasini qoʻshgan boʻlsa, til nuqtai nazaridan turkiy xalqlar madaniyatiga ulkan xazina taqdim etdi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy tili hozirgi kunda ham jahon tilshunoslarining ilmiy tadqiqotlariga mavzu boʻlib kelmoqda.

Alisher Navoiy tilini oʻrganishda uni fonetik qiymatini talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun “Majolisun-nafois” asari tilini fonetik jihatdan:

a) jumla;

³ I.A.Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Oʻzbekiston, 2008. – B. 3–4.

⁴ “Xalq soʻzi” gazetasi, 1991-yil, 1-oktabr. I.A.Karimov. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish arafasida. Toshkent, 2011. 401–403-betlar.

- b) sintagma;
- c) takt;
- d) bo‘g‘in;
- e) tovush

singari bo‘laklarga ajratish. Shuningdek, tovushlar qiymatini aniqlash uchun singarmonizm qonuniyatlarini asar tili imkoniyatlari bilan qiyoslash muhim.

“Majolisun-nafois” asarining morfologik jihatdan tasniflash uchun so‘zlarni xuddi hozirgi zamon o‘zbek tilidagi kabi dastlab ikki katta morfologik guruhga: **mustaqil** va **yordamchi** so‘zlarga, so‘ngra mustaqil so‘zlarni ot, sifat, olmosh, son, fe‘l, ravish turkumlariga, yordamchi so‘zlarni esa ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarga bo‘lish mumkin.

Mustaqil so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlarni yoki ularga qo‘shiladigan modal ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan va mustaqil holda biror gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlardir.

Yordamchi so‘zlar qachonlardir mustaqil so‘z bo‘lgan, davr o‘tishi bilan mustaqil leksik ma‘nolarni (narsa-jism, belgi, harakat ma‘nolarini), shuningdek, atama bo‘lish xususiyatini yo‘qotib, faqat grammatik ma‘no ifodalaydigan bo‘lib qolgan. Shu jihatdan ular qo‘shimchalarga yaqin turadi. Masalan: *bir+la+n* so‘zi *birla*, *bilan* kabi yordamchi so‘zga aylangan bo‘lib, *undan bila*, *ila* shakllari, nihoyat qo‘shimcha holiga kelib qolgan *–la* yuzaga kelgan. O‘zbek tilida ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar, modal so‘zlar, taqlidlar hamda undovlar yordamchi so‘z turkumlari sirasiga kiradi.

She‘riyat mulking sultoni Alisher Navoiy o‘z durdonalarida mustaqil so‘zlarning imkoniyatlaridan cheksiz-chegarasiz foydalandi; mustaqil so‘zlarni grammatik aloqadorligini ta‘minlashda esa yordamchi so‘z turkumlarining imkoniyatlaridan ham maksimal darajada foydalangan.

Biz mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda Mir Alisher Navoiy qo‘llagan yordamchi so‘zlar haqida bahs yuritamiz. Shuning uchun ham ishimizni maqsadga muvofiq ravishda quyidagicha tartibladik:

- 1.I bob: Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining fonetik xususiyatlari.
2. II bob: Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining morfologik xususiyatlari..
3. Xulosa.

I B O B

ALISHER NAVOIYNING «Majolisun-nafois» ASARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

1-§. «Majolisun-nafois» asari tilining fonetik bo‘laklari

Nutqning fonetik bo‘laklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qilganlar¹. Mavjud fikrlarni o‘rganish hamda Navoiy tili va, umuman, o‘zbek tili ustida olib borgan kuzatishlar o‘zbek nutqining, shu jumladan, Navoiy nutqining ham fonetik bo‘laklari **jumla, sintagma, takt, bo‘g‘in** va **tovushlardan** iborat, degan xulosaga olib keldi.

Jumla eng yirik fonetik birlik bo‘lib, nutqning ikki pauza orasidagi maxsus intonatsiyaga ega bo‘lgan bo‘lagidir. Jumla odatda gapga to‘g‘ri keladi. Chunki jumlaning pauzasi fikriy tugallik, intonatsiyasi esa gapning mazmuniga bog‘liqdir. Binobarin, sintaktik jihatdan gan deb atalgan nutq bo‘lagi fonetik nuqtai nazardan, ya’ni pauza va intonatsiya e’tibori bilan *j u m l a* bo‘ladi. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asaridan (143-bet) quyidagi parchani olib ko‘raylik:

تیمورکور اکان اگر جهنم ایتمافه التفات قیلمايدور لار عما نظم و نرنی

انداق خوب مهل و موقعدا او قوبدور لار کیم اینکدیک بیر بیت اقو غانی مینک یاخشی بیت او قو غانجه بار

1) *Te m u r K o ‘ r a g o n*; 2) *agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar*; 3) *ammo nazm va nasrni*; 4) *andoq xub mahal va mavqe’da o‘qubdurlarkim*; 5) *aningdek*; 6) *bir bayt o‘qug‘oni*; 7) *ming yaxshi bayt aytqoncha bor*.

Poetik nutqda jumla gapga to‘g‘ri kelmaydi.

She’riyatda jumla baytli asarlarda baytga va bandli asarlarda bandga to‘g‘ri keladi. «Hayratu-l-abror»dan olingan quyidagi parchaning har bayti bir jumladan iborat:

Harimiy Qalandar:

Necha yig‘lay sham‘dek hajringda, yorim, kechalar,

Ohkim kuydirdi dog‘i intizorim kechalar (25)

Mavlono Tarxoni:

Tushgali band ichra bo‘ldum ul pari devonasi,

Ko‘k saro fonusdur ul sham‘u men parvonasi (25).

Keltirilgan parchadagi birinchi va ikkinchi bayt bir gapdan iborat bo‘lishiga qaramay, nazm talabiga muvofiq, har bir bayt alohida jumla qilib o‘qiladi.

Jumladan keyingi kichik fonetik bo‘lak **sintagma**dir. Jumla bir yoki bir necha sintagmalarga bo‘linadi. «Sintagma»ni L. V. Shcherba², I. I. Meshchaninov³, V. V. Vinogradov⁴, M. I. Matusevich⁵ va boshqalar nutqning fonetik bo‘lagi tushunchasi sifatida ishlatsalar, A. A.

Reformatskiy⁶, Sh. Balli⁷ kabi tilshunoslar bu terminini sintaktik tushuncha sifatida ishlatadilar. Boduen de Kurtene esa «sintagma» terminini «soʻz» maʼnosida ishlatgan⁸. L. V. Shcherba tomonidan «sintagma» deb yuritila boshlagan fonetik boʻlakni baʼzi tilshunoslar «nutqiy takt» deb ataydilar⁹. Fransuz fonetisti P. Passi bu fonetik boʻlakni «nafas gruppasi» deb atagan¹⁰. Oʻzbek tilidagi sintagma jumlaning qisqa pauza bilan bir-biridan ajralib turadigan boʻlagidir. Bu pauza ega bilan kesim orasida vujudga keladi. Shuning uchun sintagma bir taktga toʻgʻri kelmaganda ega va uning aniqlovchilari bir sintagma, kesim va unga qarashli aniqlovchi, toʻldiruvchi va hollar ikkinchi sintagmani hosil qiladi. Yuqoridagi «Majolisun-nafois»dan olingan parchaning birinchi jumlasini, «Temur Koʻragon» bir sintagmadan iborat. Ikkinchi jumla «agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar» uch sintagmadan iborat. Birinchisi — agarchi, ikkinchisi – nazm aytmoqqa, uchinchi – iltifot qilmaydurlar. Agar bu jumlaning ikki sintagma (1. Koʻragon va 2. Iltifot qilmaydurlar)ga boʻlib talaffuz qilinsa, «Koshifiy» gapning egasiga aylanib qoladi. Uchinchi jumla «ammo nazm va nasrni» ham bir sintagmadan iborat. Toʻrtinchi jumla «andoq xub mahal va mavqeʼda oʻqubdurlarkim» ikki sintagmadan iborat boʻlib, birinchisi— aning-dek. Beshinchi jumla «bir bayt oʻqugʻoni», oltinchisi – “bir bayt oʻqugʻoni”, yettinchi jumla “ ming yaxshi bayt aytqoncha bor” .

Sintagma bir yoki bir necha **takt**dan iborat boʻlishi mumkin. Takt sintagmadan kichik fonetik boʻlak boʻlib, bir bosh urgʻu ostiga olib talaffuz qilinadigan boʻlakdir. Oʻzbek tilida takt mustaqil soʻzlar hosil qilib, odatda, sintaktik jihatdan gap boʻlagi boʻlib keladi. Yordamchi soʻzlar esa alohida takt hosil qilmasdan, oʻzi qoʻshilib kelayotgan mustaqil soʻz bilan birgalikda bir takt yasaydi. Yordamchi soʻz oʻz urgʻusiga ega boʻlmasdan oʻzidan oldingi mustaqil soʻz bilan birgalikda bir takt hosil qilsa, yaʼni oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshib talaffuz qilinsa, **enklitika** deyiladi. Agar yordamchi soʻz oʻz urgʻusiga ega boʻlmasdan oʻzidan keyingi mustaqil soʻz bilan bir takt hosil qilsa, yaʼni oʻzidan keyingi soʻzga qoʻshib talaffuz etilsa, unga **proklitika** deyiladi. Taktga berilgan bu qoida oddiy nasr uchun ham, sajli nasr uchun ham barobardir. Misol uchun yuqoridagi «Majolisun-nafois»dan keltirilgan parchaning birinchi jumlasini taktlarga boʻlib chiqsak, quyidagicha boʻladi:

1) *Mavlono Lutfiy-ki*; 2) *oʻz zamonida*; 3) *Xuroson*; 4) *mulkada*; 5) *turkiy va*; 6) *forsiyda*; 7) *malik ul kalom*; 8) *erdi*

Bu yerda birinchi taktdagi «i», beshinchi taktdagi “va”, yettinchi taktdagi “ul” enklitika boʻlib, urgʻusiz oʻzidan oldingi mustaqil soʻzga qoʻshilib, «Lutfiy-ki», «turkiy-va» va “malik-ul” tarzida talaffuz qilinadi. Ikkinchi taktdagi «shz» esa proklitika boʻlib, urgʻusiz oʻzidan keyingi soʻzga qoʻshib aytiladi: “oʻz-zamonasida” tarzida .

Hozir turkshunoslikda numerativ «ta», oʻxshatish koʻmakchisi «dek», «sen», «men», «dir» bogʻlamalari kabi baʼzi enklitikalarni «urgʻusiz qoʻshimcha» deb atash traditsiyaga

aylangan. Biz o‘zbek tilida qo‘shimcha faqat urg‘uli bo‘ladi, yordamchi so‘zlar esa enklitikalik va proklitikalik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Chunki «urg‘usiz qo‘shimcha» deb ataluvchi enklitikalar ham lingvistik xususiyatlariga ko‘ra yordamchi so‘z bo‘lib, ularni qo‘shimcha deyilishiga sabab hozirgi imlomizda so‘zga qo‘shib yozilishidir. Masalan, fonetik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra tamoman bir xil bo‘lgan *kabi* va *dek* unsurlarining biri ayirib yozilgani uchun «ko‘makchi», ikkinchisi qo‘shib yozilgani uchun «qo‘shimcha» deb yuritiladi. Grafika til birliklarining lingvistik tabiatini aniqlashda asosiy mezon bo‘lolmaydi. Bu so‘zlar fonetik grammatik jihatdan ham, ya’ni til nuqtai nazaridan bir xildir. Shuning uchun bularning har ikkisi ham ko‘makchidir.

«Urg‘usiz qo‘shimcha» degan tushunchaning kelib chiqish sababi ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida qo‘shimcha doim urg‘uli bo‘lishi kerak. Buyruq, undov, chaqiriq, ta’kid ohangiga ega bo‘lgan so‘zlardagi qo‘shimchalar bundan mustasno. Bunday hollarda bosh urg‘u birinchi bo‘g‘inga intiladi. Yordamchi so‘zlar esa, doim **enklitika** va **proklitikalik** xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, turkiy so‘zning faqat birinchi bo‘g‘inidagina uchraydigan unlilar turkiy qo‘shimchalarning tarkibida bo‘lmaydi, yordamchi so‘zlar tarkibida uchrashi mumkin. Bu jihatdan ham yuqorida ko‘rib o‘tganimiz *dek* qo‘shimcha emas, ko‘makchidir. Qo‘shimchadan yordamchi so‘zni, ya’ni fonetik jihatdan enklitika hisoblangan unurni farqlovchi bu ikki fonetik belgi hozirgi zamon o‘zbek tili va XV asr o‘zbek tili uchun umumiydir. XV asr o‘zbek adabiy tilida esa buning uchinchi fonetik belgisi ham bor: bu davr adabiy tilida ba’zi qo‘shimchalarga xos bo‘lgan lab uyg‘unligi va hamma qo‘shimchalarda sodir bo‘ladigan tanglay (танглай) uyg‘unlik yordamchi so‘zlarda bo‘lmaydi. Misol uchun jo‘nalish qo‘shimchasi bilan *oq* yuklamasini qiyoslab ko‘raylik:

<i>gulga</i>	<i>ayag‘ig‘a</i>
<i>ichiga</i>	<i>bashlarig‘a</i>
<i>yelga</i>	<i>yanig‘a</i>
<i>yerga</i>	<i>xājag‘a</i>
<i>eliga</i>	<i>qozig‘a</i>

«Majolisun-nafois»dan jo‘nalish qo‘shimchasiga olingan bu misollar Navoiy davrida qo‘shimcha tanglay uyg‘unligiga ega bo‘lganini ko‘rsatib turibdi. *O‘q* yuklamasi esa enklitika bo‘lib, uning yumshoq ko‘rinishi yo‘q. Bu yuklamaning oldida yumshoq o‘zakli so‘z kelsa ham shu «oq» shaklida kela beradi:

1. *Va Mavlononing qabri Taftda hamul xonaqohda-o‘qdur* (5).

2. *Va Xoja Sabzavorda sokin erdi ham anda-o‘q olamdan o‘tdi va qabri o‘zi bo‘lur maskanida-o‘qdur* (5).

She'riyatda taktning chegarasi rukn bilan belgilanadi. Bunda enklitika va proklitikalar mustaqil talaffuzga, mustaqil so'zlar znklitika va proklitika xususiyatiga ega bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan, «Hayratu-l-abror»dan olingan quyidagi baytlarning birinchisida «ara» so'zi o'zining enklitikalik xususiyatini saqlagan bo'lsa, ikkinchisida esa vazn talabi bilan enklitika tarzida emas, mustaqil talaffuz qilinadi:

Olam-aro har ne huvaydā-durur
Sirri aning zimnida paydā-durur.

Qolsa tong ermas bani ādam-aro
Oti yuz ancha bari olam-ara.

Birinchi baytda, «aro» so'zi «olam» so'ziga qo'shilib «ā-la-ma-ro» tarzida talaffuz etiladi, ikkinchi baytda esa «ā-dam-a-ro» va «ā-lam-a-ro» tarzida mustaqil aytiladi.

Bog'lovchi «u» va noaniqlik artikli «e» kabi bir unli tovushdan iborat enklitikalar she'riyatda ham o'zlarining enklitikalik xususiyatlarini hech yo'qotmaydi.

XV asr o'zbek adabiy tilida ham bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar unilardir. Bo'g'in unli bilan boshlanishi, ya'ni to'siqsiz bo'lishi yoki undosh bilan boshlanib, to'sikli bo'lishi mumkin. Bo'g'in boshida ikki undosh qator kelmaydi, ya'ni bo'g'in faqat bir undosh bilan to'siladi. Yana bo'g'in unli bilan tugashi, ya'ni ochiq bo'lishi, yoxud undosh bilan tugashi, ya'ni yopiq bo'lishi mumkin. Bo'g'in oxirida esa ikki undosh qator kela oladi, ya'ni bo'g'in ikki undosh bilan (ortiq emas) yopilishi mumkin. Mana shu ochiq-yopiqlik va to'siq-to'siqsizlik nuqtai nazaridan bo'g'innint quyidagi xillari bor:

1) **To'siqsiz ochiq bo'g'in.** Bu xilga «ā-la-ma-ra» (46-6) taktidagi birinchi bo'g'inga o'xshash faqat bir unlidan iborat bo'g'inlar kiradi.

2) **To'sikli ochiq bo'g'in.** Bu xilga mazkur taktdagi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bo'g'inlar kabi undosh va unlidan tashkil topgan bo'g'inlar kiradi.

3) **To'sikli yopiq I.** Bu xilga «pay-do-du-rur» (46-6) taktidagi birinchi va to'rtinchi bo'g'inlar kabi undosh, unli va undoshdan tuzilgan bo'g'inlar kiradi.

4) **To'sikli yopiq II.** Bu xilga yuqorida «Majoli-sun-nafois»dan keltirgan parchamizdagi «shahr-da-dur» taktining birinchi bo'g'iniga o'xshash undosh, unli va ikki undoshdan iborat bo'g'inlar kiradi.

5) **To'siqsiz yopiq I.** Bu xilga «ni-ma-o'q» taktidagi uchinchi bo'g'in singari unli va bir undoshdan iborat bo'g'inlar kiradi.

To'siqsiz yopiq II. Bu xilga yuqorida «Majoli-sun-nafois»dan olingan parchadagi «ishq» taktini hosil qiluvchi bo'g'inga o'xshash unli va ikki undoshdan iborat bo'g'inlar kiradi.

Bo‘g‘inning to‘siqsiz ochiq, to‘siqli yopiq II va to‘siqsiz yopiq II xillari qolganlariga nisbatan kam uchraydi.

Bo‘g‘in esa bir yoki bir necha tovushdan iborat bo‘ladi. **Tovush** deb bo‘g‘inning bir artikulyatsiya bilan talaffuz qilinadigan bo‘lagiga aytiladi. Tovush nutqning eng kichik fonetik bo‘lagidir.

1-§. Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida uning o‘zining «Muhokamatul-lug‘atayn»dagi ma‘lumotiga ko‘ra, to‘qqiz unli fonema mavjuddir⁵: *i, i:, e, a, o, ā, ō, u, ü*. Bu talqin “Majolisun-nafois” asari tilida ham ko‘zga tashlanadi.

«i» fonemasi. Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi «i» fonemasi qadimgi turk tilida va hozirgi jilovchi hamda uyg‘unlashuvli yilovchi o‘zbek shevalarida ikki mustaqil «í» va «i» fonemalaridan iborat. Endi, XV asr o‘zbek adabiy tilida ham bular ikki mustaqil fonema bo‘lganmi yoki hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi uyg‘unlashuvni yo‘qotgan o‘zbek shevalaridagidek bir fonema holiga kelganmi, degan savolga javob berish kerak. Alisher Navoiy yo harfining faqat uch xil talaffuz qilinishini (va yoyiy misol uch harakatdin ortiq topilmas) aytib, birinchisiga *bez* ba *ter*, *ikkinchisiga* *biz* ham *tir* (*ter*), *uchinchisiga* *bi:z* (*bigiz*) bilan *ti:r* (o‘q) so‘zlarini misol qilib ko‘rsatadi. *u–ü, o–ō* fonemalarini bir-biridan farqlay olgan Alisher Navoiy i tovushi borligi haqida gapirmaydi. Demak, qadimgi turk tilidagi *i–í* fonemalari o‘zbek adabiy tilida XV asrdayoq birlashib, bir *i* fonemasiga aylana boshlagan.

«i:» fonemasi. Alisher Navoiy, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, «*bi:z* (*bigiz*) va *ti:r* (o‘q) so‘zlaridagi *i:* ni *i* dan farqlaydi. Biz ham bu tovushni alohida fonema hisoblab, *i* ga qarama-qarshi qo‘yishni muvofiq topdik. Chunki *tariq* (*don*) va *tari:q* (*yo‘l, usul*), *qarib* (*qarimoqdan, ravishdosh*) va *qari:b* (*yaqin*), *yaqin* (*uzoqning ziddi.*), va *yaqi:n* (*aniq*) so‘zlari XV asr adabiy tilida bir-biridan shu *i* va *i:* tufayli farq qiladi. *i* unlisi bor bo‘g‘inlar yopiq bo‘lganda bir cho‘ziq bo‘g‘inga, ochiq bo‘lganda (so‘z o‘rtasida kelsa) qisqa bo‘g‘inga o‘tadi, *i:* unlisi mavjud bo‘g‘inlar yopiq bo‘lsa, doim o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inga, ochiq bo‘lsa, bir cho‘ziq bo‘g‘inga o‘tadi.

«e» fonemasi. Bu fonema qadimgi turk tilidagi til oldi «ä»sining torayishi natijasida vujudga kelgan, qadimgi turk tilidagi *käldi, säkiz, är* kabi so‘zlarning hammasida birinchi bo‘g‘indagi *ä*, XV asrda *e* ga aylanganini ko‘ramiz. *ä* turkiy so‘zlarning affikslarida saqlangan bo‘lsa ham, turkiy so‘zlar uchun fonemaning kuchli holatsi o‘zak, ya’ni birinchi bo‘g‘in hisoblanganligi uchun, uni *a* tovushining ko‘rinishi deb hisoblash kerak.

«a» fonemasi. Fors-tojik tilidan o‘zbekchaga *yār, bezār, āzār, zār, ālim, zālim, qamar, samar* kabi fors-tojik va arab so‘zlaridan o‘tib, turkiy so‘zlardagi «ä» fonemasi «e»ga

⁵ Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. Toshkent, 1948. –bet.

aylangandan keyin turkiy soʻzlardagi hamda fors-tojik va arab soʻzlaridagi *a* dan hosil boʻlgan, «*ā*» bilan «*e*»ga qarama-qarshi turuvchi tovushdir:

bor – bar – ber

zor – zar – zer

o fonemasi. Bu fonema XV asr oʻzbek adabiy tilida, yuqorida koʻrsatib oʻtganimizdek, fors-tojik tilidan oʻtgan soʻzlar tufayli paydo boʻldi. Bu davrda baʼzi turkiy soʻzlardagi «*a*»ning «*o*»ga tomon siljiy boshlaganini koʻramiz. Sheʼrdagi vazn va qofiya hozirgi «*bosh*», «*bor*», «*qor*» kabi soʻzlarning *u* davrda ham «*bash*», «*bar*», «*qar*» tarzida ham «*bosh*», «*bor*», «*qor*» kabi talaffuz etilganidan dalolat beradi.

o – ö va u – ü fonemalari. Bu fonemalarning XV asr oʻzbek adabiy tilida mavjudligi shubhasizdir. Chunki Alisher Navoiy *ot* (olov) dan *öt* (*oʻtmak* dan buyruq)ni farqlaydi.

Demak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari *i, i:, e, ā, o, ö, u, ü* singari 8 ta unli fonema mavjud boʻlgan.

2-§. «Majolisun-nafois» asarining undoshlar tizimi

Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida 25 ta undosh fonema bor: *b, p, f, v, m, t, d, s, z, n, r, l, sh, j, j, ch, k, g, q, gʻ, s, i, x, h, ʻ* (ʻ)

«**b**» fonemasi. Bu fonema lab-lab, portlovchi jarangli undoshdir. Asar tilida *bel, besh, bu, bogʻ, basar, kibi, ibo, lab, tob* soʻzlari tarkibida uchraydi.

«**p**» fonemasi. Bu fonema lab-lab, portlovchi, jarangsiz undoshdir.

Asar tilida *pichaq, papu:, paydo, pi:l, arpa, kiprik, köp* soʻzlari tarkibida uchraydi.

«**f**» fonemasi. Bu fonema lab-tish¹⁵, sirgʻaluvchi, jarangsiz undoshdir. Asar tilida *figʻon, faryod, sifol, ofari:n, tufraq, yafraq, kaf, saf* oʻzbek soʻzlarida faqat soʻz oʻrtasida uchraydi.

«**v**» fonemasi. Lab-lab, sirgʻaluvchi, jarangli fonema. Asarda *vatan, va, vaqt, vah, voy, vafo* singari oʻzlashma soʻzlar, shuningdek, boshqa holatlarda oʻzbek soʻzlarida ham uchraydi: *tavuuq, qavmaq (quvmoq), birav, qirav*.

«**m**» fonemasi. Bu fonema lab-lab, burun, portlovchi sonor tovushidir. Asarda *men, may, maktub, hama, hammom, xam, ham, dam*. Bu fonema Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi oʻzbek soʻzlarida kam uchraydi.

«**t**» fonemasi. Bu fonema til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh boʻlib, танглай va velyar koʻrinishlarga ega. Hamma holatlarda kela oladi: *ter, tesha, ata, tez, atlas, ato, at, yat, bat, ast, ust*. Old qator unlilari bilan yondosh kelganda, yumshoq oʻzakli soʻzlarda yumshoq talaffuz qilinadi: *et, ket, yetti* kabi.

«d» **fonemasi.** Bu fonema til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, asarda *dedi, devon, idish, dard, dod, baland* singari barcha hollarda qo‘llangan. So‘z oxirida *d* faqat arab va fors so‘zlarida uchraydi. *d* ham *dedi, devor* kabi so‘zlarda old qator unlilar bilan yondosh kelganda yumshoq, *dard, baland* kabi so‘zlarda qattiq talaffuz qilingan.

«s» **fonemasi.** Bu fonema til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh bo‘lib, yozuvda *sin* (س) *se* (ث) va *sod* (ص) harflari bilan ifodalanadi. (ث) *se* arab so‘zlarida, (ص) *sod* esa arab va ba’zi fors-tojik so‘zlarida uchraydi.

(س) *s* so‘z boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham keladi: *sarig‘, sen, samo, sayd, suman, asra, ust, ast, osmon, oson, is, bas.*

«z» **fonemasi.** Bu fonema til oldi sirg‘aluvchi jarangli fonema bo‘lib, yozuvda *ze* (ز), *zod* (ض), *zol* (ذ) ba *zo* (ظ) harflari bilan ifodalanadi.

Zol arab va fors so‘zlarida, *zod* va *zo* esa arab so‘zlaridagina uchraydi. So‘z boshida o‘zlashtirilgan so‘zlarda, so‘z o‘rtasida va oxirida, o‘zbek so‘zlarida ham uchraydi: *zar, zulm, zahr, zumurrad, qizil, qazan, sez, köz, yüz, tüz, tuz.*

«sh» **f o n y e m a c i.** Bu fonema til oldi, sirg‘aluvchi jarangsiz undosh tovush bo‘lib, arab va fors so‘zlarida so‘z boshida, o‘zbek so‘zlarida so‘z o‘rtasi va oxirida ham uchraydi: *shoh, shi:ri:n, sharob, sham‘, kishi, yasha, bash, tash, kosh* (koshki), *tush, qush.*

«j» **fonemasi.** Til oldi. sirg‘aluvchi, jarangli undosh bo‘lib, *ajdar, mija, mijgon, jola* kabi fors-tojik tilidan kirgan so‘zlardagina uchraydi. Hozirgi zamon o‘zbek tilida mazkur so‘zlardagi *j* ga aylangan.

«ch» **fonemasi.** Bu fonema til oldi, affrikativ jarangsiz undosh bo‘lib, *chiq, cherik, chehra, uch, kuch, kecha, necha, qachan* kabi so‘zlar tarkibida qo‘llangan.

«j» fonemasi. Bu fonema til oldi, affrikativ jarangli undosh bo‘lib, o‘zlashtirilgan so‘zlarda hamma holatlarda uchraydi: *jon, jaʼhon, javob, aʼjab, aʼjal, unʼjy, moj, xupoj.*

«n» **f o n y e m a c i.** Bu fonema til oldi, burun, portlovchi sonor tovush bo‘lib, *ne, nay, nima, jonon, ana, dona, qani, qan, san, kon, fan, men, sen* singari so‘zlar tarkibida kelgan.

Olmosh oxiridagi *n* jo‘nalish qo‘shimchasi qo‘shilganda qo‘shimcha oldidagi undosh bilan qo‘shilib *n* ga aylanadi: *men + ga – meʼna, bu>mun + g‘a – muʼna, ul>an + g‘a – aʼna.*

«r» **fonemasi.** Bu fonema til oldi, titroq, sonor undosh tovush bo‘lib, *rab, rpbot, sharaf, shirin, turunj* kabi so‘zlar tarkibida uchraydi.

«l» **f o n y e m a c i.** Bu fonema til oldi, yon, sirg‘aluvchi, sonor tovush bo‘lib, so‘z boshida faqat o‘zlashtirilgan so‘zlarda, so‘z o‘rtasi va oxirida o‘zbek so‘zlarida ham uchraydi: *lola, lu‘lu‘, lek, lozim, ilm, bala, ala, bal, lol, al* (qizil) kabi so‘zlarda uchraydi.

«y» **fonemasi.** Bu fonema til oʻrta, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovush boʻlib, soʻz boshida oʻzlashtirilgan soʻzlarda, soʻz oʻrtasida va oxirida, oʻzbek soʻzlarida ham uchraydi: *rom, raxshon, raxsh, rahm, rux, qara, ari, bar, qar, zar.*

«ŋ» **f o n e m a s i.** Bu fonema til orqa, burun, yumuq sonor undosh boʻlib, soʻz boshida mutlaqo uchramaydi. Soʻz oʻrtasida turkiy soʻzlarda, soʻz oxirida turkiy va fors-tojik soʻzlarida ham uchraydi: *oŋay, teŋiz* (dengiz), *meniz, chaŋ, raŋ, taŋ, teŋ.*

Bu fonema sayoz va chuqur til orqa koʻrinishlariga ega *chaŋ, oŋay* kabi qattiq soʻzlarda orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda chuqur til orqa undoshi kabi talaffuz qilinadi.

«k» **f o n y e m a s i.** Bu fonema til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh boʻlib, yozuvda *kof* (ك) harfi bilan ifodalanadi.

Hamma holatlarda uchraydi: *ket, kel, köz, karomat, keküs, ekürmäk, bebok, eshak.*

k bilan *q* tovushlari qadimgi davrda bir fonemaning ikki koʻrinishi sifatida oʻqilgan. Chunki turkiy soʻzlarda *k* faqat old qator unlilar bilan, *q* esa faqat orqa qator unlilar bilan yondosh keladi. Boshqacha qilib aytganda, soʻzda «*k*» yoki «*q*» kelishi maʼno bilan emas, holat bilan bogʻliq. Shuning uchun ham *t, s* kabi fonemalarning тағлай va velyar koʻrinishlarini va *q* fonemasining sayoz til orqa va chuqur til orqa koʻrinishlarini alohida fonema deya olmaganimizdek, *k* bilan *q* ni ham qadimgi davr uchun alohida ikki fonema deya olmaymiz. Alisher Navoiy davrida esa *í – i* unlilarining va *a – ä* unlilarining konvergensiya, hamda oʻzbek tilida *tok* va *toq* kabi *k* bilan *q* tufayli farqlanuvchi arab va fors-tojik soʻzlarining paydo boʻlishi bitta turkiy fonema *k (q)*ning divergensiya uchrab, ikki mustaqil *k* va *q* fonemalarga aylanishiga sabab boʻlgan.

Turkiy soʻzlar oxiridagi *k* unli yoki sonor undosh bilan boshlangan qoʻshimcha va enklitikalar oldida jaranglashib, *g* ga aylanishi mumkin.

«q» **fonemasi.** Bu fonema chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush boʻlib, yozuvda *qof* (ق) harfi bilan ifodalanadi.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi *q* fonemasi qadimgi turk tilidagi bir «*k (q)*» fonemasining divergensiya natijasida vujudga kelgan fonemadir. *q* fonemasi soʻz boshida ham, oʻrtasida ham, oxirida ham keladi: *qara, qan, qash, qalin, qad, toquz, maqom, yoq, toq, teŋ* (gunbaz), *q* fors-tojik soʻzlarida uchramaydi, turkiy soʻzlar oxiridagi *q* unli yoki sonor undoshlar bilan boshlangan qoʻshimchalar, enklitikalar oldida jaranglashib, *g* ga aylanish hollari ham uchraydi. Sheʼriyatda soʻz oxiridagi *q* qofiya talabi bilan «*g*» ga ham aylanishi mumkin¹⁸.

«g» **fonemasi.** Bu fonema til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush boʻlib *k* kabi yozuvda *kof* harfi bilan ifodalanadi. Hamma holatlarda uchraydi: *gözal, gär, gäh, agar, egachi, teg.* *g* arab soʻzlarida uchramaydi. Mumtoz arab tilida *g* tovushi umuman yoʻq. Shuning uchun

arab tiliga fors tilidan o'tgan so'zlardagi *g* tovushi *j* ga aylanadi: *gulob*– *jula:b*, *nargis* – *narjis* kabi.

g fonemasi ham xuddi *k* va *q* fonemalari kabi qadimgi turk tilidagi bir *g* (*g'*) fonemasining divergensiya natijasida mustaqil fonemaga aylangan tovushdir.

«**g'**» **fonemasi**. Bu fonema chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, yozuvda *g'* ayn (غ) bilan ifodalanadi.

Hamma holatlarda uchraydi: *g'ash*, *g'ofil*, *g'ari:b*, *dag'i*, *yag'i*, *tag'*, *bog'*, *charog'*, *di.mog'*, *g'abg'ab*. Biz ko'rgan Alisher Navoiy matnlaridagi turkiy so'zlarning boshida *g'* uchramadi. So'z boshida *g'* ning kelishiga sabab bo'lgan so'zlar asosan arab so'zlaridir.

g' fonemasi yuqorida aytib o'tganimizdek, qadi.m turk tilidagi bir *g* (*g'*) fonemasining divergensiya natijasida vujudga kelgan fonemadir.

g (*g'*) fonemasining divergensiya ham xuddi *k* (*q*)dagi kabi *i*– *i* va *a* – *ä* unlilarining konvergensiya, hamda faqat *g* bilan *g'* da farqlanuvchi (*gar* – *g'ar*, *gul* – *g'ul* kabi) arab va fors-tojik so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishi sabab bo'lgan.

«**x**» **f o n y e m a c i**. Bu fonema chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh bo'lib, yozuvda *xe* (خ) harfi bilan ifodalanadi.

x hamma holatlarda uchraydi: *xatun*, *xat*, *xarazm*, *xohish*, *yaxshi*, *baxt*, *taxt*, *shox*.

Bu fonema o'zbek so'zlarining oxirida uchraydi. A. M. Shcherbak bu undoshni eski o'zbek tilida shartli ravishdagina bor deyish mumkin, deydi.¹⁹. Biroq bu masalaga sinxronik nuqtai nazardan qaraganda Alisher Navoiy tili va XV asr o'zbek adabiy tilida bu fonemaning mavjudligini shartsiz tan olish kerak. Chunki Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida *xat* va *qat*, *yax* va *yaq* kabi so'zlar bir-biridan shu *x* tovushi tufayli farq qiladi. Demak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida qadim alohida fonema hisoblanmagan *x* tovushi arab va fors-tojik so'zlari tufayli alohida fonemaga aylangan.

«**h**» **f o n y e m a c i**. Bu fonema bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh bo'lib, yozuvda (*o*) va (*ح*) harflari bilan ifodalanadi.

Ikkinchisi arab so'zlarida uchraydi. *h* Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida fors-tojik va arab so'zlari hisobiga so'zning hamma pozitsiyalarida uchraydi: *har*, *hamma*, *hasham*, *tuhmat*, *pahmat*, *shoh*, *ogoh*.

«**'**» **fonemasi**. Bu fonema bo'g'iz, portlovchi undosh tovush bo'lib, yozuvda *ayn* va *hamza* билан ифодаланади.²⁰. Faqat arab so'zlarida uchraydi: *san'at*, *so'at*, *sham'*, *jam'*, *mas'ul*. *Ayn* harfi so'z boshida ham uchraydi. Biroq uning so'z boshida ham talaffuzga ega bo'lgan deyishga hech qanday asos yo'q. Alisher Navoiy davridagi orfografiyada arab va fors-tojik so'zlariga nisbatan grafik prinsip qo'llangani uchun mazkur harflar so'z boshida talaffuzga ega bo'lmasa ham yozuvda aks ettirilgan.

3-§. «Majolisun-nafois» asari tilida uyg'unlashuv

«Majolisun-nafois» asari tilida ham uyg'unlashuv qonunlari mavjud²¹.

Asar tilining qonuniyatlari bizni XV asr o'zbek adabiy tilida uyg'unlashuvning har uchala qonuni, ya'ni unlilardagi tanglay uyg'unligi, lab uyg'unligi, hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi bor, degan xulosaga olib keldi. Faqat Alisher Navoiy davridagi o'zak-asos va qo'shimchalarning qattiq yoki yumshoqligini aniqlashda fors-tojik va arab so'zlarini, a va i unlilarining konvergentsiyasi va $k(q)$, $g(g')$ undoshlarining divergentsiyasini hisobga olish kerak. «Majolisun-nafois» tilida quyidagi belgilarga ega bo'lgan so'zlarning o'zak-asosi qattiq hisoblanadi.

1. Birinchi bo'g'inida a unlisi bo'lgan so'zlar. Bunday so'zlarning o'zak-asosi, kelib chiqishidan qat'i nazar, xoh turkiy bo'lsin, xoh o'zlashma bo'lsin, qattiq bo'ladi. Bu holdan faqat turkiy *ayla*- fe'li va *ayla* ko'makchisi hamda tarkibida, ayniqsa oxirida, k , g tovushlari bo'lgan fors-tojik va arab so'zlari mustasno.

2. Tarkibida u , o unlilari bo'lgan hamma so'zlar.

3. Tarkibida q , g undoshlari bo'lgan hamma so'zlar.

4. Tarkibida k va g tovushlari bo'lmagan fors-tojik va arab so'zlari. Bunday so'zlarda tanglay uyg'unligi buzilishi ham mumkin. Lekin bu hodisa juda kam uchraydi.

Quyidagi belgilarga ega bo'lgan so'zlarning o'zak-asosi yumshoq bo'ladi:

1. Birinchi bo'g'inida e bo'lgan turkiy so'zlar.

2. Tarkibida u va o bo'lgan hamma so'zlar.

Tarkibida k va g undoshlari bo'lgan hamma so'zlar. k va g so'z oxirida bo'lmagan fors-tojik va arab so'zlarining ba'zilar bundan mustasno.

4-§. Tanglay uyg'unligi

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida qattiq o'zak-asosga qo'shimchalarning qattiq ko'rinishlarining qo'shilishini va yumshoq o'zak-asosga yumshoq ko'rinish-larning qo'shilishini Mirzo Mahdiyxon o'zining «Sanglox»²² asarining «Maboniu-l-lug'at»²³ qismida aytib o'tgan. Masalan, Mahdiyxon qo'shimchalarning qattiq va yumshoq ko'rinishlarining ishlatish o'rnini to'g'ri tushuntirib berolmagan Farog'iy va Toli Hiraviylarni tanqid qilib, quyidagilarni yozadi: «Shuni bilish kerakki, formalarni vujudga keltiradigan unsur ikkidan ortiq turga ega emas. U yo *qof* (q) va *g'ayn* (g') li yo *kof* (k , g)li bo'ladi. Bu har ikkala tur ixtiyoriy ravishda xohlagan paytda ishlatila berilmasdan, eshitilishiga qarab, bilib ishlatiladi. Garchi Farog'iy o'z asarida *qof* yoki *kof* aytilishi ixtiyoriy va Toli Hiraviy ham, taxminan,

«alg‘uchi»ning ma’nosini gapirar ekan, faol sifatdoshga *g‘ayn* yoki *kof* qo‘shish ixtiyoriydir. Masalan, *qilg‘uchi* va *bilguchi* kabi deb yozsalar-da, bularning har ikkalasining ham so‘zi yanglishdir. Chunki buyruq formasi *qil qofiy* bo‘lib, uning barcha formalari *qof* va *g‘ayn* bilan yasaladi: *qilmaq*, *qilg‘ay*, *qilg‘uchi* va hokazo. *Bil* esa *kofiy* bo‘lib, uning boshqa formalari *kof* bilan aytiladi: *bilmak*, *bilgay*, *bilguchi* va hokazo.

«Majolisun-nafois» asari tili Mahdiyxonning bu fikrini tasdiqlaydi. Masalan, qiyoslang:

قىلماغلىق *qilmag‘liq* (152)

يىقىلماغلىق *yiqlimg‘liq* (152)

قوپماق *qopmaq* (152)

قىلماماق *qilmamaq* (152)

قىلماق *qilmaq* (102)

توتماق *tutmaq* (102)

چاپماق *chapmaq* (100)

ايتماق *aytmaq* (104)

اورماق *urmaq* (106)

سېندورماق *sag‘indurmaq* (106)

اولماك *ölmak* (152)

«Majolisun-nafois» asari tilida xuddi mana shu *-maq/-mak* ka o‘xshab boshqa qo‘shimchalar ham qattiq va yumshoq ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili va uyg‘unlashuvni yo‘qotgan shevalarda, masalan, *aqlga*, *dimog‘iga*, *yoqasiga*, *bolgan*, *urgan*, *qilgani* deyilsa, «Majolisun-nafois»da bu so‘zlar *aqlg‘a*, *di.mog‘ig‘a*, *yaqasig‘a*, *bolg‘an*, *urg‘an*, *qilg‘ali* (26) деб берилган. Bu hol Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida танглай-velyar uyg‘unlik bo‘lganidan darak beradi. Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida bu uyg‘unlik buzilgan, degan fikrning paydo bo‘lishiga, birinchidan, keyingi davr qo‘lyozmalariga asoslanish, ikkinchidan, Alisher Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida o fonemasining mavjudligini tan olmaslik natijasida fors-tojik va arab so‘zlaridagi *a* ni *ā* deb bilish oqibatida aslida qattiq bo‘lgan o‘zaklarni yumshoq deb tushunish sabab bo‘lgan. Masalan, *odob* kabi so‘zlar *adab* deb o‘qilgan, *adab* esa, *ādāb* deb o‘qilgan. Biroq bu so‘zga qo‘shimchalarshshg qattiq ko‘rinishi qo‘shiladi. Bunday hollar esa танглай-velyar uyg‘unlik buzilgan, degan fikrning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

5-§. Lab uyg‘unligi

«Majolisun-nafois» asari tilida yopiq bo‘g‘inli qo‘shimchalardagi i unlisi oxirgi bo‘g‘ini lablangan unlili so‘zlarga qo‘shilganda lablanadi:

بى حىاليق *behayoliq* (99)

دىماكلىك *demaklik* (99)

ایگریلیک egrilik (99)

تارتتیم tarttim (209)

معشوقلیق ma'shuqluq (99)

کیزکولوک kezuguluk (99)

Bir undoshdan iborat bo'lgan qo'shimchalardagi epentetik unlilar ham lab uyg'unligiga bo'ysunib, so'zning oxirgi bo'g'inidagi unli lablangan bo'lsa, lablangan unli holda, so'zning oxirgi bo'g'inidagi unli lablanmagan bo'lsa, lablanmagan holda qo'shiladi. Masalan:

ایتیپ etip (103)

بییریپ berip (103)

ساغینیپ sag'inip (103)

تارتیپ tartip (103)

سیپسینک siposin (98)

قدرتینک qudratin (99)

عشقیق ishqi (99)

Bu keltirgan misollarimizdagi ravishdosh qo'shimchasi *p* va ikkinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi qo'shimchasi *η* oldidagi unli oxirgi bo'g'inda lablangan unli kelgan so'zlarda lablangan, lablanmagan unlili so'zlarda esa lablanmagan.

Uchinchi shaxs buyruq qo'shimchasi *-sun/-sün*, o'tgan zamon birinchi shaxs ko'plik qo'shimchasi *-duq/-dük* kabi qo'shimchalardagi unlilar tarixan lablangan unlilardan iborat bo'lgan bo'lishi kerak, shuning uchun bular XV asr o'zbek adabiy tilida o'z holatini saqlagan bo'lib, hozirgi zamon o'zbek tilida reduksiyaga uchrab, lablanmagan unliga aylangan. *mu* bilan *tur* esa qo'shimcha bo'lmagani uchun ular тағлай-velyar va lab uyg'unligiga bo'ysunmaydi.

6-§. Jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi

«Majolisun-nafois» tilida jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga undosh tovush bilan boshlangan qo'shimchalarnint jarangsiz undosh bilan boshlangan ko'rinishlari, unli va jarangli undosh tovush bilan tugagan so'zlarga esa jarangli undosh bilan boshlangan variantlari qo'shiladi. Sonor tovush bilan boshlangan affikslarda bunday uyg'unlik yuz bermaydi. Masalan, *-lar*, *-maq*, *-mak*, *-la*, *-ma* kabi qo'shimchalarning birinchi tovushi jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda ham o'zgarishsiz qoladi: *bashlar*, *aytmaq*, *etmak*, *bashla*, *ketma* kabi.

«Majolisun-nafois» tilida jaranglilik va jarangsizlik uyunligining mavjudligini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin:

سپقاردی sipqardi (105)

sundi (105) سوندى
oldi (6) اولدى
yasadi (106) ياسادى
berdi (166) بىردى
jihatqa (53) جەتقا
ulusqa (53) اولوسقا
tutti (7) توتى

II bob

“Majolisun-nafois”ASARINING MORFOLOGIK XUSUSIYALARI

Morfologiya grammatikashshg bir qismi bo‘lib, so‘zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalarini, so‘zning formalar sistemasi va shu formaning hosil bo‘lish yo‘llari hamda hosil qiluvchi vositalarni o‘rganadi. Demak, morfologiya so‘zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarining morfologiyasini esa quyidagi yo‘sinlarda talqin qilish mumkin. Bu asar tilidagi so‘zlarni ham, hozirgi o‘zbek tilidagidek, mustaqil, yordamchi va uchinchi guruhlarga bo‘lish mumkin.

“Majolisun-nafois” asarining morfologiyasidagi mustaqil so‘z turkumlari hozirgi o‘zbek tilidagi singari ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe‘lga bo‘linadi.

1-§. Ot

1. Otlarni ma‘no jihatdan turlicha klassifikatsiya qilish mumkin. Bu o‘rinda ot turkumiga kirgan so‘zlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asosga olindi.

2. Otlar quyidagi semantik xususiyatlariga ko‘ra tasnif qilinadi:

3. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarshshg umumiy nomini bildirishiga ko‘ra.

Kim yoki nima so‘zlariga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra.

Sanalish yoki sanalmasligiga ko‘ra.

“Majolisun-nafois”dagi ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar quyidagi grammatik kategoriyalarni o‘z ichiga oladi: a) atoqlilik va turdoshlilik; b) ko‘plik; d) egalik; c) kelishik.

Atoqlilik va turdoshlilik. Otlarning bir morfologik xususiyatga ko‘ra atoqli va turdosh otlarga bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

Atoqli otlar bilan turdosh otlar o‘rtasidagi grammatik farqlar shundan iboratki, atoqli otlar doim muayyan holatdagi ot kabi ishlatiladi (*Mir Maxdum, Hofizi Sa‘d, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Husayn Xorazmiy, XojaAbulvafo Shayx Ozariy* kabi), turdosh otlar esa ham muayyan ham mavhum holatlarga ega bo‘ladi.

Ko‘plik. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida ko‘plik, asosan, hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilidagidek *-lar* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi.

Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshikida voqe’ erdi, tong otqonda, andoqkim, o‘yuni atfol da’bi bo‘lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohg’a o‘ynag‘ali kirdilar (15).

-lar qo'shimchasining qo'llanish doirasi keng bo'lib, u turkiy so'zlargagina emas, o'zlashtirilgan so'zlarga ham qo'shilib keladi. Masalan:

a) arab so'zlariga:

*Dedilarkim: bu jamoat atfolidin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fotiha o'quli deb o'z **fotihalarig'a** musharraf qildilar (15).*

b) fors-tojik so'zlariga:

*M i r Y o d g o r b y e k — «Sayfiy» taxallus qilur erdi. Xurosonning asil va muta'yyin **mirzodalaridindur** (17).*

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida ko'plikning arabcha shakllari ham mavjud.

Hozirgi zamon o'zbek tilida arabcha ko'plik shaklidagi so'zlarning ba'zilarigina, ko'proq -ot qo'shimchasiga ega bo'lganlari jamlik mamosiga egadir: *Bu nav' g'arib **sifoti** ko'pdurki, agar desa so'z uzolur.*(36). *Chun **kamoloti** «azharu min ash-shams»dur, sharh qilmoq ehtiyoj emas, faqir Astroboddin bu ruboiyni Pahlavon xizmatlarig'a bitib erdi (61).*

Arab tilida ichki fleksiya bilan ko'plik hosil qilingan. Masalan: *sulton – salotin, vasf – avsof, vaqt – avqot* kabi. Bu shaklda qo'llanish asar tilida ham aynan qo'llangan:

*Shohrux Mirzo zamonidin bu farxunda davrong'acha ko'prak **salotin** va akobir va mutta'yyin elga ham madhi va ham marsiyasi bor (39). M a v l o n o N u r i y — ko'proq avqot Mashhadda bo'lur. Lavandvash va oshuftasifat kishidur (45). Ko'p hamida axloq va pisandida **avsofg'a** muttasifdur (76). ... muborak ismlari bu **avroqda** sabt bo'lurdin guzir va yozilmasa dilpazir ermas erdi, jur'at bo'ldi (16).*

Hozirgi zamon o'zbek tilida arabcha ko'plik shakllari ko'plik ma'nosida o'qilmasa ham, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida ularning ko'plik kabi o'qilganini ko'ramiz:

*Bobur Mirzo zamonida muazzam sadr bo'ldi va andin so'ngra ham **salotin** majlisida maqbul va maxsus erdi (23).*

Quyidagi misolda esa Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida arabcha ko'plik shakllarining ko'plik kabi o'qilganini kesimning ko'plik shaklida berilganidan anglash mumkin: *Mavlono yigitligida **ulumi** zohiriyni takmil qilg'ondin so'ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariyqida ham suluk qilg'ondur (32).*

Demak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida ko'plikning arabcha shakli ham ko'plik kabi o'qilgan. Navoiy uslubni rang-barang qilish uchun so'zning ko'plik shakli kerak bo'lganda bir yerda -lar qo'shimchasidan foydalansa, ikkinchi bir yerda xuddi shu so'zning arabcha ko'plik shaklidan ham foydalanadi:

*M a v l o n o A t o i y — Balxda bo'lur erdi. Turkigo'y erdi. O'z zamonida she'ri **atrok** orasida ko'p shuhrat tutti (32).*

Ikkilik (Tasniya)

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida ba'zi so'zlarning arabcha ikkilik shakli ham uchraydi. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi ikkilikning grammatik belgisi *-ayn* qo'shimchasidir. Masalan: *M i r z o b e k — insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab' va fahm va otaru tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona bu nav' ta'riflardin mustag'niy.*

Bu matla' aningdurkim:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,

Kim jonga qaro balo bo'lubtur.

Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi aksim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur (35).

Egalik. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi egalik kategoriyasi asosan hozirgi zamon o'zbek tilidagidan farq qilmaydi. Biroq Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi egalik qo'shimchalari o'zining fonetik variantlari bilan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi.

Birinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida *-m, -im, -um, -ym* shaklidir:

...taxminan olti yoshimda bo'lg'ay erdim va Mavlono bir rahbada o'turub ermishlar, tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar (17)

Badaxshon shohig'akim, anga murid bo'lub erdi, «Fusus» dars aytur erdi, ko'pglumni base sayd qildi (18).

Ikkinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi *-ng, -ing, -ung* dan iborat:

Necha yig'lay sham'dek hajringda, yorim, kechalar,

Ohkim kuydirdi dog'i intizorim kechalar (25).

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,

Kim jonga qaro balo bo'lubtur (35).

Uchinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi *-i, -si* shakliga ega:

Hayf va yuz hayf va darig' va yuz ming darig'kim, hayot chashmasidin serob bo'lmadi va umri naxli mevasidin bar yemadi (35).

Rindlig'i chog'ida visoqi rind va xarobotiylarning majmai erdi va bu ishni kishi andin yaxshiroq qilmadi (35).

Birinchi va ikkinchi shaxs ko'plikda egalik qo'shimchasining shu shaxs birlikdagi shakllariga *-iz, -uz* qo'shiladi:

*Aning tab'i diqqatig'a bu bayt dalili basdur. Faqir gustohlik yuzidin Mirg'a dermenkim, fazoyil va **kamolotingizg'a** ko'ra darveshligingiz ham bo'lsa erdi, xub erdi (63).*

Uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi -lari shakliga ega.

*Ammo jaddi darvesh kishi erdi. Xonaqohi va **muridlari** bor erdi (73).*

Keltirilgan misollar Navoiy va XV asr o'zbek adabiy tilida egalik qo'shimchalari quyidagicha bo'lgan, degan xulosa chiqarishga asos bo'la oladi

Demak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilidagi egalik qo'shimchalari birinchi va ikkinchi shaxslarda lablangan va lablanmagan unliln hamda galatal va velyar variantlarga ega ekan.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida kelishiklarning qo'llanishi

Turkiy tillarda «kelishik» deb shartli ravishda so'zlarning gapdagi sintaktik munosabatlarni ifoda qiluvchi ot yoki otlashgan so'zning qo'shimchaai shakliga aytiladi.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida xuddi hozirgi zamon o'zbek adabiy tili va jelovchi o'zbek shevalaridagidek oltita kelishik bor: 1) bosh kelishik, 2) qaraiqich kelishigi, 3) tushum kelishigi, 4) jo'nalish kelishigi, 5) chiqish kelishigi, 6) o'rin-payt kelishigi.

Bosh ke1ishik. Bosh nol ko'rsatkichga ega. Bosh kelishik shaklidagi ot ko'plik va egalik qo'shimchalarini olgan bo'lishi mumkin. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida bosh kelishik shaklidagi ot quyidagi sintaktik vazifalarga ega:

1. Gapning egasi bo'lib keladi:

***P a h l a v o n D a r v y e s h M u h a m m a d** — Pahlavon Muhammadning inisidur (73).*

2. Gapning kesimi vazifasida keladi:

*X o j a A b u N a s r — Xoja Muayyad Mehna (alayhirrahma)ning **o'g'lidur** (75).*

Q a r a t q i c h k e l i s h i g i. Qaratqich kelishigi Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida -ning qo'shimchasi bilan yasaladi. Bu qo'shimchaning -ning, -nyng varianti ham bor bo'lib, bunisi asosda maksimal lablanish bo'lgan holdagina ishlatiladi. Masaian, bu olmoshiga qaratqich qo'shimchasi qo'shilganda doim *munung* bo'ladi.

*Mehna **shayxzodalarining** nohamvor maoshi ko'ptur (75).*

*Va jamei ahli **туруқnung** sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen (25).*

***Munung** ustida ham so'zlar aytili, Manziliga borib, tuhfa va tabarruk va savg'ot yo'suni bila yubordi va to anda erdi, doyim kelur erdi (21).*

Bu misollarning birinchisida qaratqich qo'shimchasining *-nung* varianti qo'shilishiga sabab *b>m* undoshining ham lab undoshi shanligi bo'lsa, ikkinchi misolda esa o'zakning hamma unlilari lablangan unlilardan iboratligidir. Boshqa hollarda hatto o'zakning oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lgan taqdirda ham qaratqich qo'shimchasining *-ning* varianti qo'llanadi.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigining ko'rsatkichi *-ni* va *-n*. Tushum qo'shimchasining *-n* varianti uchinchi shaxs egalik qo'shimchasiga qo'shiladi. Vazn talabi bilan uchinchi shaxs egalik qo'shimchasidan keyin *-n* emas, *-ni* kelishi ham mumkin:

*O'xshatti qomatingg'a sanavbarni bog'bon,
Bechora bilmas ermish alifdin tayog'ni (33).*

*N u r S a i d b y e k — xorazmliq'dur. Tab'ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin
she'ridin bilsa bo'lur, o'qug'on bilg'ay (33).*

Jo'nalish kelishigi. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari tilida jo'nalish jo'lishigining belgisi *-qa, -ka, -g'a, -ga -a, -na*.

Jo'nalish qo'shimchasining *-na* varianti esa, faqat u s t i n a so'zida uchraydi. Biroq bu so'z Navoiyda *usgiga* shaklida ham ishlatiladi.

Jo'nalish qo'shimchasining *-qa, -g'a, -ka, -ga* varianllarining ishlatilishida tanglay uyg'unlik va jaranglilik-jarangsizlik uyg'unligi buzilmavdi.

*M i r S a i d — el orisida «Kobuliy» laqabi bila mashhurdur. Faqirg'a tag'oyi bo'lur.
Yaxshi tab'i bor erdi. Turkchaga mayli ko'proq erdi (34).*

*M i r S a i d — el orisida «Kobuliy» laqabi bila mashhurdur. Faqirg'a tag'oyi bo'lur
(34).*

*M a v l o n o B a q o i y — kamongarlikka mashhur va o'zini muammoiqliqqa ham
shuhrat berdi. Ammo faqir hargiz andin muammoki, nimaga yaragay, eshitmadim (44).*

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigi ko'rsatkichi *-din, -tin* qo'shimchasi bo'lib, *-din* unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga, *-tin* esa jaiangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan.

*M i r A s a d u l l o h — simnonliqdur. O'z mulkidin ilm talabiga shahrg'a keldi va
faqirning madrasasida sabaq o'qur erdi (55).*

*Va yana rasoyil ham ilgida borkim, alarg'a o'tgan kishi Mirning fazoyil va kamolatin
fahm qilg'ay(65).*

O'rin-payt kelishigi. o'rin-payt kelishigining bdgisi *-da/-ta* qo'shimchasidir. o'rin-payt qo'shimchasining *-da* varianti unli yoki jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga, *-ta* varianti esa jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. O'rin-payt kelishigida so'z quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1. Harakat yoki narsa-jism o'rnini bildiradi:

*Tahsil ishin takmil qilur vaqtda g'oyat xushtab'lig'idin va musohiblar xotiri jihatidan lavandlig'larg'a tushti va rindliq tariyqin ul martabag'a yetkurdikim, mast yo maxmur bosh va oyoq yalang ko'y va ko'cha va **bozorda** yurur erdi (65).*

2. Payt bildiradi:

*I b r o h i m M u h a m m a d X a l i l — Muhammad Xalilning o'g'lidur va Xalilbek yillar Nimro'z mulkidin G'azni navohisig'acha hukumat qildikim, ba'zi **vaqtda** hech podshohqa tobe' ham emas erdi va bu Ibrohimning yaxshi tab'i bor (80).*

2-§. Sifat

«Majolisun-nafois» tilidagi sifatlar ham xuddi hozirgi turkiy tillardagi sifatlar singari asliy va nisbiy sifatlariga bo'linadi. Asliy sifatlar ham, nisbiy sifatlar ham narsa-jismning belgisini bildiradi. Asliy sifatlariga *oq, qora, ko'k, qizil, yashil, sarig'* singari rang bildiruvchi, *shirin, chuchuk, achiq* (achchiq)qa o'xshash ta'm anglatuvchi, *ulug', kichik, past, baland* singari hajm va shakl ifodalovchi, *yosh, qari, ko'r* kabi jismoniy belgilarni bildiruvchi, *yaxshi, yomonga* o'xshash mavhum belgilarni anglatuvchi, *tuz* (to'g'ri), *uzoq, yaqin* singari zamon va makon belgilarini bildiruvchi so'zlar kirib, bular narsa-jism belgisini bevosita o'zlarining leksik ma'nolari bilan bildiradi.

*Ahmad Hojibek «Vafoiy» taxallus qilur va she'ri mashhurdur va devoni ham bor. Munosib ermas erdikim, **ulug'** kishiga bejihat taxallusda sherik bo'lg'ay (51).*

*Atiq ur-rahmon Shayx Luqmon (quddisa sirruhu) mazorida yigirma yilg'a **yaqin** shayx va mutavalli erdi (62).*

Nisbiy sifatlariga esa *burnog'i* (burungi), *ilg'i* (yilgi) singari vaqtga bo'lgan munosabatni bildiruvchi, *chohdag'i, boshidag'i* kabi makonga bo'lgan munosabatni anglatuvchi: *kuchluk, yoshlig'* (yoshli) singari egalik belgisini bildiruvchi, *yorsiz, nokom, bevafo* singari yo'qlik belgisini anglatuvchi, *gulgun, parivash* kabi o'xshashlik va hokazolarni bildiruvchi so'zlar kirib, bular narsa-jismning belgisini bevosita o'z leksik ma'nolari bilan ifodalamay, bir narsa-jismning boshqa narsa-jismga bo'lgan munosabati orqali, ya'ni nisbiy ravishda belgi bildiradi.

*G'oyat **sho'x tab'lig'idin** tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi (62).*

*Ul hazratning shahar **ichidagi** madrasasida mudarrisdur (75).*

Hozirgi chog'ishtirma daraja qo'shimchaci *-raq* «Majolisun-nafois» tilida *-raq* va *-rak* variantlariga ega bo'lgan.

*M a v l o n o F a s i h i d d i n — Mavlono Nizomiddin Hiravin ahfodidindurkim, alarni Nizomiylar derlarkim, Xurosonda mundin **sharifroq** nasab yo'qtur (75).*

«Majolisun-nafois» tilida sifatning orttirma darajasini yasaydigan hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan *eng* so'zi ishlatilmaydi. Ammo sifatning orttirma darajasi «Majolisun-nafois» tilida ham sifatni chiqish kelishigi va bosh kelishik shakllarida takrorlash yo'li bilan yasaladi

Hozirgi zamon o'zbek tilida sifat kesim bo'lib kelganda III shaxsda ko'proq bog'lamasiz ishlatiladi. «Majolisun-nafois» tilida aksincha bog'lama *dur(ur)–tur(ur)* bilan ko'p ishlatiladi:

*Har necha alarning rutbasi shoirliq poyasidin **yuqoriroqdur** (3).*

-(u)q –(u)k q o' s h i m c h a c i. Bu qo'shimcha fe'ldan sifat yasaydi:

*M a v l o n o Y o r i y — astrobodlig'dur. Tab'ida xili **sho'xluq** bor (59).*

-iy qo'shimchasi. Bu qo'shimcha sifatdan tashqari ot ham yasaydi. «Majolisun-nafois» tilida *-iy* sifat yasovchi sifatida ham juda mahsuldordir:.

*M a v l o n o F i d o i y — ham astrobodlig'dur va sayidzodadurkim, **zohiriy** safosi bor. Otasi bila Baytullo safarig'a borib keldi (60).*

-nok q o' s h i m c h a s i. Bu qo'shimcha egalik ma'nosiga ega bo'lib otdan sifat yasaydi:

*M a v l o n o N o s i r i d d i n — Ahmad Hojibek mulozimidur. Otasi donishmand va muttaqi va valoyat shior kishi ermish. Ammo o'zi sipohiqliqqa **havasnok** va takallufotqa rog'ib kishidur (84).*

-gun q o' s h i m c h a s i. Bu qo'shimcha rang, tus bildirib, otdan sifat yasaydi:

*Xattining tori tushubtur la'li **maygun** ustina,*

Uylakim, jon rishtasi bir qatrai xun ustina (105) Lutfiy.

-vash qo'shimchasi. Bu qo'shimcha o'xshatish ma'nosiga ega bo'lib, ot va otlashgan so'zlardan sifat yasaydi:

***Parivashining** qaro libosidin hayrat qilg'onikim, quyosh qaronqu tunda ko'runmak g'aribdur va vasl kavkabi sa'di hajr tiyra shomida tulu' qilmoq ajib (108).*

-vor q o' s h i m c h a s i. Bu qo'shimcha ot va sifatdan sifat yasaydi (ravish yasashi ham mumkin: devonavor):

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam aylar madad,

Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a (111). Lutfiy.

Demak, Alisher «Majolisun-nafois» tilidagi sifat hozirgi zamon adabiy tilidagi sifatdan quyidagilar bilan farq qilar ekan:

1. Sifat turkumiga oid turkiy qo'shimchalar «Majolisun-nafois» tilida fonetik variantlarga ega va hozirgi qo'shimchalardan fonetik jihatdan farq qiladi.

2. «Majolisun-nafois» tilida ba'zi o'zlashtirilgan qo'shimchalar va tojikcha hozirgi zamon fe'l o'zagi bilan sifat yasash mahsuldordir.

3. Hozirgi sifatning orttirma darajasini yasovchi *eng* so'zi Navoiy asarlari tilida uchramaydi.

3-§. Olmosh

«Majolisun-nafois» tilida III shaxs kishilik va ko'rsatish olmoshi *ul* bosh kelishikda ham, boshqa kelishiklarda ham: hozirgi o'zbek tilidagidan farq qiladi. Bu olmosh quyidagicha turlanadi:

B. k. *ul*

Q. k. *aning*

T. k. *ani*

J. k. *anga*

Ch. k. *andin*

U. k. *anda*

Ul kishilik olmoshi bo'lib kelgandagina *alar* shaklida ko'plik shakli yasaladi.

*Faqir mutaraddidkim, ta'rif bunyod bo'ldi, **anga** ajab sharmandalig' bo'lg'usidur va faqirg'a **andin** ortug'roq* (111).

Ul bobda hech so'z demadilar. Muddate o'lturdi va so'z o'zga taraflar tushti, to **ulki**, majlis nihoyatqa yetti va el tarqaldilar (111).

Birinchi va ikkinchi shaxs birlik olmoshlari jo'nalish kelishigida *menga* va *senga* shakllariga ega. Qolgan shakllarda hozirgi o'zbek tilidagi kabidir. Bularning ko'pligi ham *biz* va *siz* shaklida bo'lib, hozirgisidan farq qilmaydi.

*Qaddu yuzung hajridin, vahkim, **menga** bo'lmish mudom,*

Sarv mayli bartaraf, gul orzusi xud harom (112).

Navoiy men o'rnida *bu faqir* iborasini yoki *faqir* so'zini ishlatadi:

*Bu matla' **faqirning** bir matlai muqobalasida tushubturkim, agar burunroq aytilmish bo'lsa erdi, faqir hargiz o'z matlaimni aytmag'ay erdim* (103)

Ko'rsatish olmoshlari *osh* va *ham* ta'kid yuklamalari bilan oldin tilga olingan ko'rsatilmishga nisbatan ishlatiladi.

Hozirgi *osha* (o'sha) va *shu* olmoshlari *oshul* olmoshidan kelib chiqqan. oshuldagi *u* labsizlanib, *oshal* vujudga kelgach va *o* tushib qolib, *shul* vujudga kelgan. *Oshal*, *oshul* ma'nosida, *shul* esa *ushbu* ma'nosida ishlatilib, ikki olmosh vujudga kelgan, so'ngra har ikkisida ham oxirgi l tushib qolib, *osha* (o'sha) va *shu* hosil bo'lgan.

«Majolisun-nafois» tilida yana *oshulning* tojikcha shakli *hamon* (ham – osh, on – ul) ham ishlatiladi:

***Hamonoki**, avval rozaliq san'atig'a20 mansub erdi va she'r ayturdin so'ngra aruz o'rgandi va sanoyi'din dag'i sohibi vuquf bo'ldi* (84).

«Majolisun-nafois» tilida hozirgi zamon o'zbek tilidagi **so'roq olmoshi** *nima* o'rnida *ne* qo'llanadi. «Majolisun-nafois» tilida *nima* esa asosan narsa ma'nosida ishlatiladi:

Bas chun bu muxtasarda nima ul jins so'zlardin sug'ursa bo'lmas va alar sharhida nukta sursa bo'lmas (95).

Ne ajoyib xo'y erur, ey sho'xi siyminbar, sanga —

Kim, necha mehringda jon bersam emas bovar sanga (95).

Hozirgi qaysi olmoshi ma'nosida «Majolisun-nafois» tilida qay, qayu va qaysining o'zi ham ishlatiladi:

Qaysi jannat sabzasi xatti namudoricha bor,

Yo Masiho nutqi ul la'li shakarboricha bor?(98).

Demak, «Majolisun-nafois» tilidagi olmoshlar quyidagi xususiyatlarga ega ekan:

- 1) «Majolisun-nafois» tilida hozir iste'moldan chiqqan va arxaiklashgan olmoshlar bor;
- 2) hozir ham mavjud bo'lgan ayrim olmoshlar hozirgi shu olmoshlardan shaklan farq qiladi;
- 3) ba'zi olmoshlar hozirgi shu olmoshlardan qo'llanishi va ma'no xususiyatlariga ko'ra ham farq qiladi.

4-§. Son

«Majolisun-nafois» tilida hozirgi sakkiz va sakson (sakson) sonlari sek(k)iz, seksan shakllariga ega.

Yeti yo sakkiz yilliq saltanatida go'yoki uch ganj topibdur (89).

(B o b o S a v d o i y) Umri seksondin o'tti va qabri Bovardning Sukkon otlig' kentidadur (11).

9 soni «Majolisun-nafois» tilida toqq(q)uz shakliga, 30 soni ot(t)uz shakliga va 20 soni yigirmi shakliga ega.

To'qson to'qquz yashadi va oxir umrida radifi «oftob» she'ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar (31).

M a v l o n o H u s a y n V o i z — «Koshifiy» taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Yigirmi yilg'a yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono zufo'nun va rangin va purkor voqe' bo'lubtur (64).

«Majolisun-nafois» tilidagi 2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlarida o'rtadagi undosh ikkilanishi ham mumkin, ikkilanmasligi ham mumkin: *iki//ikki, yeti//yetti, sekiz//sekkiz, toquz//toqquz, otuz//ottuz, elik//ellik* tarzida. Masalan, 8 soni quyidagi baytning birinchi misrasida sekkiz, ikkinchi misrasida esa sekiz o'qiladi:

Bormasa ikki xato bo'lur erdi. Bok yo'qdur, aybsiz tengridur (64).

Ulug'bek Mirzo — donishmand podshoh erdi. Kamolati bag'oyat ko'p erdi. Yeti qiroat bila qur'oni majid yodida erdi (89).

Tartib sonlarda tartib son qo'shimchasi *-nchi* va *-inchi* dan tashqari *unchi* va *unchi* variantlariga ham ega, *unchi* oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lgan yumshoq o'zakli sonlarga, *unchi esa* qattiq o'zakli sonlarga qo'shiladi:

M a v l o n o A m i n i y — Muhammad Ali Amin o'g'lidurkim, ikkinchi majlisda oti mazkur bo'ldi. Tab'i bag'oyat muloyim yigitdur (50).

Demak, «Majolisun-nafois» tilidagi son turkumiga kiruvchi so'zlar yuzasidan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- 1) "Majolisun-nafois" tilidagi ba'zi sonlar hozir fonetik o'zgarishlarga uchragan,
- 2) «Majolisun-nafois» tilida o'zbek tilida hozir saqlanmay, boshqa turkiy tillarda saqlangan shakllar bor,
- 3) *tadan, talab* kabi qo'shimchalar «Majolisun-nafois» tilida yo'q bo'lib, bular o'zbek adabiy tilida keyin paydo bo'lgan,
- 4) «Majolisun-nafois» tilida birinchi tartib soni o'rnida *avvalg*'i so'zi ishlatiladi.

5-§. Fe'l

Fe'l katta so'z turkumi bo'lib, ko'p kategoriyalarni o'z ichiga olgani uchun «Majolisun-nafois» tilining fe'l doirasidagi xususiyatlari boshqa turkumlardagiga nisbatan ko'proqdir.

Nisbat shakllari

«Majolisun-nafois» tilida ham xuddi hozirgi zamon o'zbek tilidagidek fe'lning beshta nisbat shakli bor: *aniq nisbat, o'zlik nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbat* va *orttirma nisbat*.

Aniq nisbat nol ko'rsatkichga ega. O'zlik nisbati aniq nisbatdagi fe'l asosiga *-n, -in, -un, -un* qo'shimchasini orttirish bilan yasaladi:

Bu faqir avval nazmekim, o'rganibmen, bu so'nggi matla'dur (3).

Majhul nisbat fe'l asosiga *-l, -il, -ul* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bu qo'shimcha variantlarining o'zakka qo'shilish tartibi ham o'zlik nisbati qo'shimchasiniki kabi.

Muborak marqadi Miyoni Du jo'yda Gozurgoh yo'lida o'z otasi hazirasi ichida gunbazida erdi. Azizlar hazirasig'a naql qilildi (35).

-ul shakliga misol:

Sababin so'ruldi, ersa obodong'ina javob aytmedi (42).

Birgalik nisbati fe'l asosiga *sh, ish, ush, yut* qo'shimchasini orttirish bilan yasaladi. Bu qo'shimcha variantlarining asosiga qo'shilish tartibi o'zlik va majhul nisbat qo'shimchalariniki singaridir.

Aql maoshi ul martabadadurkim, bovujudi tasannun ul ravza boshidag'i sodot bila borishur, bu jihatdin ba'zi ani nifoqqa va ba'zi xuruj mazhabig'a nisbat berurlar (74).

Majlis ahlidin birov dedikim, magar sizning mahosingiz tuki adadidin sizni voqif qilibdur, el kulushtilar (83).

Fe'ning orttirma nisbati aniq nisbatga quyidagi qo'shimchalarni orttirish bilan yasaladi,

1) -tur,- tur qo'shimchasini:

Va Mavlono Shohrux mirzo zamonida bir g'azal uchun takfir qilib, Xorazmdin Hiriyg'a kelturdilar (6).

2) -g'uz-guz qo'shimchasini:

Har bayti, yo ma'nisig'a ehtiyoj bo'lsa, ko'rgali filhol devonin chiqarib, topib ko'rguzur (84).

3)-qur,- g'ur,- kur,- gur qo'shimchasini:

Alardin biri Xoja Abdulqodir erdi va yana biri Mavlono Muhammad Koxin erdi va yana biri Ustod Qutb Noyi erdi. Tavochi borib ikkisini yasoqqa yetqurdi (88).

4)-kar qo'shimchasini:

Ulcha imkoni bor, olamni xushluq bila o'tkardi (90)

5) -t qo'shimchasini:

Barchadin g'aribroq bukim, bu uchurda derlarkim, shogirdlari bila tog' gashtiga borib, tosh yumalatib, bir faqirg'a tegib, o'lub ermish (52).

Demak, «Majolisun-nafois» tilida o'zlik, majhul va birgalik nisbatlarining qo'shimchalari tanglay va lab uyg'unligiga, orttirma daraja qo'shimchalari esa faqat tanglay uyg'unligiga bo'ysunar ekan. Bundan tashqari orttirma ngisbatning ba'zilari hozir fonetik o'zgarishlarga uchragan (*ko'rguz>ko'rgaz* singari), ba'zi hozir mavjud bo'lgan qo'shimchalar «Majolisun-nafois»da yo'q (masalan, /sersagdagi *sat*). Yana «Majolisun-nafois»da -n qo'shimchasi majhul nisbat yasamaydi (masalan, hozirgi *qilindi* «Majolisun-nafois»da *qilildi* shaklida ishlatiladi).

Sifatdosh

«Majolisun-nafois» tilida o'tgan zamon sifatdoshining -g'an va -mish shakllari bor. Utgan zamon sifatdoshining -g'an shakli -g'an, -qan, -gan, -kan qo'shimchasi bilan yasaladi:

Muolijasin ham ko'rganlar o'kodurlar (56)

M a v l o n o A s i r i y — ham emdi zuhur qilg'an shuarodindur (58).

«Majolisun-nafois» tilida o'tgan zamon sifatdoshining -mish shakli ham ko'p qo'llanadi.

Porso yoring'a may ichmak shior o'lmish yana,

Baski tortarman sabu, egnim figor o'lmish yana (92).

Sifatdoshning bu shakli -g'an shakliga qaramaharshi o'laroq, asosan zamon shakli sifatida ishlatiladi va ko'pincha gapda kesim vazifasida keladi.

Hozirgi zamon davom sifatdoshi ham «Majolisun-nafois» tilida *-ag'an/-agan* qo'shimchasi bilan yasaladi:

Habibekim, fig'onidin anga asar bo'lmag'ay aning anduxi va rafiqekim, yomon holidin anga xabar bo'lmag'an (98).

Hozirgi zamon davom sifatdoshi qo'shimchasining *-ag'an* zarianti yozuvda alifu g'aynu alifu nun bilan ifodalanib, qattiq asoslarga qo'shiladi, *-gan* shakli esa alifu kofu alifu nun bilan ifodalanib, yumshoq asoslarga qo'shiladi.

«Majolisun-nafois» tilida hozirgi zamon sifatdoshi *-g'uchi, -kuchi, -guchi, -kuchi* qo'shimchasi bilan yasaladi.

G'am yema, mahzun ko'ngulkim, dilraboying kelgusi,

Bazmi ishqing tuzguchi ishratfizoying kelgusi (109).

-kuchi shakli jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq asoslarga qo'shiladi. Xiriy shahrining lavand va *ichkuchi* yigitlari anga musohib bo'lur erdilar (5).

Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining bo'lishli shakli asosining bo'lishli shakliga (*a-u-u*)r qo'shimchasini orttirish bilan, bo'lishsiz shakli esa fe'l asosining bo'lishsiz shakliga *s* qo'shimchasini orttirish bilan yasaladi:

Ravishdosh

Ravishdoshning *-i(b)* shakli «Majolisun-nafois» tilida asosga *-p(ip), -up* qo'shimchasini orttirish bilan yasaladi.

Tabasdag'i avqof va tavliyat va shayxlig'in qabul qilib, Holo ul ishga mashg'uldur (54).

M a v l o n o Sh o ' h i y — Shayx Said Lodaning o'g'lidur. Agarchi yaxshig'ina tab' nasibi bo'lubtur, ammo otasi tavridin ham benasib emasdur (55).

«Majolisun-nafois» tilida *a* ravishdoshi (*i-u-u*)p ravishdoshiga sinonim sifatida ham ishlatiladi. Bu holni quyidagi parchada aniq ko'rish mumkin:

Chun donishmand va istiloh bilur kishi erdi hech nima sobit qila olmadilar. Qaytib yana o'z mulkiga ketti (5).

-a ravishdoshining bo'lishsiz shakliga yana *-in* qo'shimchasi ham qo'shilishi mumkin:

Vasl aro o'ltur meni to dog'i hijron ko'rmayin,

Kuydur andoq dog' ilakim, hech darmon ko'rmayin (103).

Tugal ravishdosh «Majolisun-nafois» tilida *-g'ach (-qach), -gach (-kach)* qo'shimchasi bilan yasaladi:

Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g'alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg'ach filloh muttanabbih bo'ldi va izhori minnatdorlig' ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo'ldi (23).

*Ko'zi yorining yuziga **tushgach**, ko'ngli beqaror bo'lg'oni va yor ham ani o'z lutfi mehriddin umidvor qilg'oni sharhida base xub va pisandida tushubtur (98).*

Ravishdoshning -g'ali, -qali, -gali, -kali shakli. Bu qo'shimcha variantlarining asosga qo'shilish tartibi ham -g'ach, -qach, -gach, -kach qo'shimchasiniki singaridir.

*Sendin ayru **tushgali**, ey mohi tobonim mening,*

Dam-badam qonyoshi yig'lar chashmi giryonim mening (101).

***Bo'lg'ali** la'ly uza xatti namudor o'zgacha,*

Tutti ohim barqiddin ko'k yuzi zangor o'zgacha (108).

Yana «Majolisun-nafois» tilida ravishdoshning -g'uncha, -quncha, -guncha, -kuncha shakli ham mavjud bo'lib, ma'nosi va qo'llanishi jihatidan hozirgi o'zbek tilidagi shu ravishdoshdan farq qilmaydi. Bu qo'shimcha variantlarining asosga qo'shilish tartibi ham tugal va maqsad ravishdoshlariniki singaridir. Bundan tashqari, bu qo'shimchadagi *n* tovushi nazmda vazn talabi bilan tushib qolishi ham mumkin.

*Kecha tong **otquncha** va kunduz oqshom bo'lg'uncha ishi mutolaa erdi (63).*

Ravishdoshning -u shakli:

*Ey jaf o' tig'i, kelib majruh ko'ksumni **yoru**,*

*Qo'l yalang aylab solib haryon ichimni **axtaru** (106).*

Demak, «Majolisun-nafois» tilidagi ravishdoshlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat ekan:

- 1) Ravishdosh qo'shimchalari fonetik variantlarga ega.
- 2) Ba'zi ravishdosh shakllarining ishlatilish doirasi hozirgiga qaraganda ancha keng.

Mayl

«Majolisun-nafois» tilida buyruq, aniqliq, shart-istak va tilak mayllari bor.

B u y r u q m a y l i . Buyruq mayli ikkinchi va uchinchi shaxs shakllariga ega. Buyruq maylining ikkinchi shaxs birligi uch shaklga ega. Birinchisi fe'l asosiga to'g'ri keladi:

G'uncha gar nisbat qilur o'ziga dildor og'zini,

*Ey sabo yeli, to'la qon **ayla** zinhor og'zini (14).*

Ikkinchisi -g'il, -qil, -gil, -kil qo'shimchasi bilan yasaladi. -g'il shakli yozuvda g'aynu yoyu lom bilan ifodalanib, unli yoki jarangli undosh bilan tugagan qattiq asoslarga qo'shiladi:

*Ey ko'ngul, ul bevafo ko'yida maskan **aylagil**,*

*Zor yig'lab, sharh etib, holingni shevan **aylagil** (102).*

Buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'pligi -**ng(iz– uz–uz)**, -**iq(-iz)**, -**ung(uz)**, -**ung(uz)** qo'shimchasi bilan yasaladi. Qo'shimchaning variantlari lab va tanglay uyg'un ligiga bo'ysunadi:

Qon ko'rub ashkimni, ko'nglum yorasini so'rmangiz,

Chok o'lub ko'ksum, jigar pargolasini so'rmangiz (99).

Buyruq maylining uchinchi shaxsi «Majolisun-nafois» tilida ikki xil yo'l bilan yasaladi:

1) *-sun* qo'shimchasi bilan.

Ishq suubatidin holining bir-bir shiddatin aytib, hech kishiga bu hollar bo'lmasun, deb istid'o ko'rguzmakda bu matlai ajab xub tushubturkim (103).

Bag'oyat munbasit bo'lub, hukm bo'ldikim, Qabuliyni topib keltursunlarkim, bu bobda aning bila mutoyaba qilali (112).

Mazkur shakl «Majolisun-nafois» tilida asosiy shakl hisoblanadi.

Aniqlik mayli. «Majolisun-nafois» tilida aniqlik maylidagi fe'l quyidagi zamon shakllarini o'z ichiga oladi:

Aniq o'tgan zamon. Bu zamonning 3-shaxs birlik shakli asosga *-di, -ti* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Faqir mutaraddidkim, ta'rif bunyod bo'ldi, anga ajab sharmandalig' bo'lg'usidur va faqirg'a andin ortug'roq (112).

Muddate o'lturdi va so'z o'zga taraflar tushdi, to ulki, majlis nihoyatqa yetti va el tarqaldilar (112).

3-shaxs ko'plik shakli shu shaxsning birlik shakliga *-lar* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Navvobdin biri arz qildikim, Qabuliyni kelturdilar va ul bayt bobida aning bila mutoyaba qilmadilar, hamonoki unutuldi (112).

2-shaxs birligi asosga *-ding, -ting, -dung, -dung, -tung, -tung* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

-ding shakli unli yoki jarangli undosh bilan tugagan va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lmagan asoslarga, *-ting* shakli esa jarangsiz undosh bilan tugagan va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lmagan asoslarga qo'shiladi:

Kim, aylading oni olam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoniy (36).

Ikkinchi shaxs ko'plik shakli ikkinchi shaxs birlik shaklidan, *-ing* shakliga *-iz* qo'shish bilan yasaladi:

Jonu ko'nglumni jafo o'ti bila kuydurdizingiz,

Uylakim kul bo'ldumu mendin ko'ngul tindurdizingiz (34).

Aniq o'tgan zamonning birinchi shaxs birligi fe'l asosiga *-dim, -tim, -dum* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

Yuz balolar ko'rdum, ul oromi jondin ko'rmadim,

Ikki ko'zumdin yomonlik ko'rdum ondin ko'rmadim (38).

Unli yoki jarangli undosh bilan tugagan va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lmagan asoslarga *-dim* varianti qo'shiladi. *-tim* shakli esa jarangsiz undosh bilan tugagan va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lmagan asoslarga orttiriladi:

Faqir aytimki, «tahvildor hisobin ado qilurda fozil kelturmak xiyonat dalilidur» (63).

Jarangsiz undosh bilan tugagan va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lgan asoslarning qattig'iga *-tum* va rianti, yumshog'iga esa *-tum* shakli qo'shiladi:

Mavlono Tolib Jojarmiy — SHerozda nash'u namo topibdur. Va qabri hazrati Xoja Hofizning oyog'i sari erdi. Bu ruboiysini qabri toshig'a bitib erdilarkim. Faqiri haqir yod tuttumkim (12).

Aniq o'tgan zamonning birinchi shaxs ko'pligi *-duq, -duk, -tuq, -tuk* qo'shimchasi bilan yasaladi.

Unli yoki jarangli undosh bilan tugagan asoslarning qattig'iga *-duq* shakli, yumshog'iga esa *-duk* shakli qo'shiladi:

Anglading, yo yo'qmukim, aylar safar yor, ey ko'ngul,

Vahki, bo'lduq hajri ilkidin yana zor, ey ko'ngul (102).

Hazrat buyurdilarkim, unutulmadi, ammo ul so'z zikrida anga uyat bo'lur erdi, tilamadukki, g'arib yigit majlisda el arosida uyatlig' bo'lg'ay, ul sababdin aning she'ri va ul bayt bobida so'z deyilmadi (112).

Demak, «Majolisun-nafois» tilida aniq o'tgan zamonning tuslanish paradigmasi quyidagicha ekan:

Bo'lishli shakl

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	$-(a-u^2)r - men$ $-(a-u^2)ram$	$-(a-u^2)r - biz$
II shaxs	shaxs $-(a-u^2)r - sen$	$-(a-u^2)r - siz$
III shaxs	$-(a-u^2)r$	$-(a-u^2)r$

Bo'lishsiz shakl

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	$-mas - men$ $-(a-u^2)ram$	$-mas - biz$
II shaxs	$-mas - sen$	$-mas - siz$
III shaxs	$-mas$	$-maslar$

O'tgan zamon. Bu zamon shakli $-(i-u)p$ ravishdoshiga bog'lama qo'shish bilan yasaladi. Birinchi shaxs birlik shaklida mazkur ravishdoshga birinchi shaxs birlik bog'lamasi *men* qo'shiladi:

Bu faqir avval nazmekim, o'rganibmen, bu so'nggi matla'dur (3).

Faqir aruzni Darvesh qoshida o'qubmen. Va Darvesh qirq bila ellik yosh orasida olamdin o'tti va qabri Xojai Toqdadur (21).

Birinchi shaxs ko'plik shaklida birinchi shaxs ko'plik bog'lamasi *-biz* qo'shiladi:

olturup-biz, turup-biz.

Ikkinchi shaxs birlik shaklida ikkinchi shaxs birlik bog'lamasi *-sen* ishlatiladi:

Dedilarkim: ne yergacha o'qibsen? Dedimki: «taborak» surasig'acha (16).

Ikkinchi shaxs ko'plik shaklida ikkinchi shaxs ko'plik bog'lamasi *-siz* qo'llanadi:

bolup-siz, aylap-siz.

Birinchi va ikkinchi shaxs bog'lamalari oldiga *-tur* qo'shib, *tur-men, tur-sen, tur-biz, tur-siz* shaklida ham ishlatilishi mumkin:

To tushubturmen sirishkim bahridin girdob aro

Zulfidek sargashta jismim qoldi pechu tob aro (95).

Uchinchi shaxs birlik shakli uchinchisi birlik bog'lamasi *-tur(ur)* bilan yasaladi:

Necha bo'lg'ay vasling ummidig'a dardu hasratim,

Rahm qilkim, yo'qturur hajringda emdi toqatim (103).

Uchinchi shaxs ko'plik shakli birligiga *-lar* qo'shish bilan yasaladi:

Ul hazrat o'qug'ondin so'ngra debdurlarki, ikkinchi bayti aning nazmining rangi emas, xayolg'a andoq kelurkim, falon muyi aning bu she'rida aytmish bo'lg'ay (112).

Demak, «Majolisun-nafois» tilidagi natijali o'tgan zamonning tuslanish paradigmasi quyidagicha ekan:

a) birligi:

Shaxsлар	birligi	ko'pligi
I shaxs	$-(i-u^2)p- (tur)men$	$-(i-u^2)p- (tur)biz$
II shaxs	$-(i-u^2)p- (tur)sen$	$-(i-u^2)p- (tur)siz$
III shaxs	$-(i-u^2)p- tur(ur)$	$-(i-u^2)p- tur(ur)lar$

Noaniq o'tgan zamon. Bu zamon sifatdoshning *-mish* shaklidan yasaladi. Birinchi shaxs birligi mazkur sifatdosh *men* bog'lamasi yoki *-am* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

jam' aylamish-men, bo'lmish-men.

Noaniq o'tgan zamonning ikkinchi shaxs birligi sifatdoshning *-mish* shakliga ikkinchi shaxs birlik bog'lamasi *-sen* qo'shimchasini orttirish bilan yasaladi:

hukm aylamish-sen, demish-sen.

Uchinchi shaxs birligida uchinchi shaxs bog'lamasi *-tur(ur)* qo'shilishi ham mumkin, qo'shilmasligi ham:

*O'zi xush xulq va xush tavr yigit **ermish**, hamonoki qabri Buxorodadur (8).*

Uchinchi shaxs ko'pligida uchinchi shaxs birlikka *-lar* qo'shiladi:

*Ul jumladin, Mutahhiri Udiy uchunkim, eshakini ulug'roq, jihatidin el muzd berib, tuxum uchun o'z eshaklariga sekritur **ermishlar** (39).*

Demak, noaniq o'tgan zamonning tuslanish paradigmasi quyidagichadir:

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	- <i>mish-men/-misham</i>	- <i>mish – biz</i>
II shaxs	- <i>mish-sen/-mishan</i>	- <i>mish – siz</i>
III shaxs	- <i>mish(-tur)ur</i>	- <i>mish(-tur)ur/lar</i>

Hozirgi zamon. «Majolisun-nafois» tilida ma'no jihat dan hozirgi *-yapti* va *-yotir* shakllariga to'g'ri keladigan hozirgi zamon *-a(-y)* ravishdoshidan bog'lama bilan yasaladi va quyidagicha tuslanadi:

Asos undosh bilan tugaganda

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	- <i>a(dur)men</i>	- <i>a(dur)biz</i>
II shaxs	- <i>a(dur)sen</i>	- <i>a(dur)siz</i>
III shaxs	- <i>a(dur)</i>	- <i>a(dur)lar</i>

Asos unli bilan tugaganda

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	- <i>y(dur)men</i>	- <i>y(dur)biz</i>
II shaxs	- <i>y(dur)sen</i>	- <i>y(dur)siz y(dur)lar</i>
III shaxs	- <i>y(dur)</i>	- <i>y(dur)lar</i>

Kelasi zamon. «Majolisun-nafois» tilida *kelasi zamon* *-g'ay, -qay, -gay, -kay* qo'shimchasi bilan yasaladi⁸⁰. She'rda vazn talabi bilan birinchi va ikkinchi shaxslarda «y» tovushi tushib qolishi ham mumkin.

Ammo andoq **qilmag'aykim**, tiyl bilg'aykim, bu Mir qoshidin ekandurkim, nogoh ko'ngilginasi Mirdin **og'rimag'ay** (67).

Onasi rizosi uchun bovujudi odami istitoat va nomurodliq haj safarin ixtiyor qilib, onasini eltti. Hanuz ahvoli ne bo'lg'on, xabari kelmaydur. Umid ulkim, matlubi hosil bo'lub **kelgay** (84).

Ne habibekim, fig'onimdin anga **bo'lg'ay** asar,

Ne rafiqekim, yamon holimdin ul topqay xabar (98).

Bu zamon shaklining tuslanish paradigmasi quyidagicha:

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	$-g^{x4} a(y) - men$	$-g^{x4} a(y) - biz$
II shaxs	$-g^{x4} a(y) - sen$	$-g^{x4} a(y) - siz$
III shaxs	$-g^{x4} ay$	$-g^{x4} aylar$

Misollardan ko'rinib turibdiki, bu shakl «Majolisun-nafois» tilida nutq paytidan keyin bajariladigan ishharakatini bildiradi.

Demak, «Majolisun-nafois» tilidagi zamon shakllari quyidagi xususiyatlarga ega ekan:

- 1) «Majolisun-nafois» tilida hozirgi o'zbek tilida iste'moldan chiqqan shakllar bor.
- 2) «Majolisun-nafois» tilida o'zbek tilidan boshqa turkiy tillarda hozir ham mavjud bo'lgan shakllar bor.
- 3) «Majolisun-nafois» tilidagi tuslovchilar singarmonistik variantlarga ega va ba'zi tuslovchilar hozir fonetik o'zgarishlarga uchragan.
- 4) «Majolisun-nafois» tilidagi ba'zi shakllarning hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi o'zgargan.
- 5) Zamon shakllari «Majolisun-nafois» tilida hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydigan o'rinlarda ham ishlatiladi.

Shart-istak mayli

Shart-istak mayli *-sa* qo'shimchasi bilan yasilib, quyidagicha tuslanadi:

Shaxslar	birligi	ko'pligi
I shaxs	<i>-sam</i>	<i>-saq/sak</i>
II shaxs	<i>-sang</i>	<i>-sangiz</i>
III shaxs	<i>-sa</i>	<i>-salar</i>

Vah, ne holatdurki, men har necha **ko'rguzsam** niyoz,

Ey mahi bemehr, sendin zohir o'lmas g'ayri noz (99).

*Ey ko'ngul, **bo'lsang** vafosiz dilrabolardin xalos,
Shukr qil, bo'lg'on kishn yanglig' balolardin xalos (99).*

*Men halok o'ldum g'amingdin sen qo'yoshsen, ey sanam,
Ayb emas gar mendin **o'lsa** kamligu sendin karam (103).*

*Barchadin **qolsalar** so'zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she'rlarni
aningdurkim, o'g'urlab o'z otig'a qilibdur (33).*

6-§. Ravish

«Majolisun-nafois» tilida hozirgi o'zbek tilida iste'moldan chiqqan ravishlar bor. Masalan, *base, asru, burna, taqla* kabi ravishlar shular jumlasidandir. *basi* ravishi o'zbek tiliga tojik tilidan o'tgan bo'lib, «behad», «ko'p» va «juda» ma'nolarida ishlatiladi:

*Ko'ngli firoqu dard o'qidin yora erkani va bag'ri hajr tig'i zahmidin yuz pora bo'lg'onini
base xub bu nav' ado qilurkim (97).*

*Bor emish yor ishtiyoqi **asru** qattiq ishtiyoq,
Vasl topmon, vah, tuganmas dard emish, dardi firoq (100).*

*Bu qofiyada bovujudkim, ikki rangin matla' o'tubdur, nazm tavrida g'oyat qudratdin so'z
adosida nihoyati diqqatdin bir matla' **dag'i** deyilibdurkim (103).*

Bu baytning birinchi misraida *base* «behad», «ko'p» degan ma'noda, ikkinchisida esa *juda* degan ma'noda qo'llangan.

Hozirgi *doyimo, avvalo* kabi ravishlardagi *e* «Majolisun-nafois» tilida *-an* *doyiman, avvalan* shakliga ega.

Ravishlarning yasashiga kelganimizda, «Majolisun-nafois» tilida ravishlar takror yo'li bilan ko'p yasaladi. Masalan, quyidagi baytlarda o'tni takrorlash yo'li bilan ravish yasalgan:

*Necha kuygay hajr ila farsuda jonim **dam-badam**,
Ko'nglum ichra g'am uza g'amdur alam uzra alam (103).*

Navoiy asarlarida ba'zi bir arab ko'makchilari ham arab so'zlariga prefiks kabi qo'shilib ravish yasaydi. Bunday ko'makchilar qo'shilgan so'zlar *ala* ko'makchisini oladi. Masalan, «Mahbubulqulub»da quyidagi arab ko'makchilarining ravish yasaganini ko'ramiz:

fi k o' m a k ch i s i. Bu ko'makchi ma'no jihatdan o'zbekcha o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi *-da* ga to'g'ri keladi. *Ul olam ahli sultoni himmati qoshida baski sultonlig'i muhaqqir ko'rinur va faqirni **filhaqiqat** saltanatqa tarjih qilur, bu baytdakim, haqiqat ma'nisi majoz suratida ado topibdur (110).*

7-§. BOG'LOVCHILARNING QO'LLANISHI

Bog'lovchilar boshqa yordamchi so'z turkumlari singari mustaqil so'z turkumlari asosida rivojlangan. Masalan, *kim* bog'lovchisi *kim* so'roq olmoshi asosida shakllangan, *taqī/dag'ī* boglovchisi aslida ravish turkumiga oid bo'lgan, *ne... ne...* bog'lovchisi *ne* so'roq olmoshi asosida vujudga kelgan, *shunīy ychyn (kim)*, *annīy ychyn (kim)* kabi bog'lovchilar esa ko'rsatish olmoshlariga *chyn* ko'makchisi qo'shish bilan hosil bo'lgan. Lekin bunday bog'lovchilar turkiy tillarda juda kam soni tashkil qiladi.

Hozirgi turkiy tillarda iste'molda bo'lgan bog'lovchilarning aksariyati eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashtirilgan. Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, bunday bog'lovchilar turkiy tillar taraqqiyotining ma'lum davrlarida o'zlashtirilgan bo'lib, ularning soni asta-sekin ko'paya borgan va qo'llanilishi faollashgan. O'zlashtirilgan bog'lovchilarning bir guruhi XI-XIV asrlardan boshlab tez-tez qo'llana boshlagan.

«Majolisun-nafois» tilida bog'lovchilar mustaqil so'z turkumlari singari keng qo'llangan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, hazrat «Majolisun-nafois» tilida teng boglovchilaridan faqat **u**, **va** hamda **lekin** bog'lovchilarigina qo'llangan.

u b o g' l o v c h i s i.

U hamda *va* bog'lovchilari Urxun yozuvi obidalarida uchramaydi.

Urxun yodgorliklarida hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida *va* yoki *u* bog'lovchisi ishlatiladigan uyushiq bo'laklar va juft so'zlarda ...li (...li) qo'shimchasi ishlatilatiladi: *aduplu tojurlu art yrā sog'umo'sh ärmāsh armīsh adupuj yarulmush tojuruuj azupu sunmush tir*⁶.

(Ya'ni: *Ayiq va (bilan) to'ng'iz davon ustida urishgan ekan, ayiqning qorni yorilipti, to'ng'izning ozig'i sinipti*).

XI asrda yozilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» asarida endi «...li ...li» bilan birga xuddi shu ma'noda *u* bog'lovchisining ishlatilganini hamda bulardan boshqacharoq vazifada va bog'lovchisidan ham foydalanganini ko'ramiz:

hamd-u sipos va minnat-u ögdi täñri azza va jallaqa, tygäl qudratlīg' podshoh yerli kökli yaratg'an, qamug' tīnlīg'larg'a (jonlilarga) roziy bergan.

Kelib chiqish nuqtai nazaridan *va* bog'lovchisi arabchadir.

U bog'lovchisi tojikcha bo'lib, tarixan qadimgi fors tilidagi *uta* biriktiruvchi bog'lovchiga borib taqaladi. Qadimgi fors tilidagi bu *uta* bog'lovchisi tilning keyingi bosqichlarida ixchamlashib, u shaklini olgan. So'ngra bu bog'lovchi tojik mumtoz adabiyoti

6 Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М. – Л., 1951, 80-бет.

asarlari tilidan taxminan X-XI asrlarda o'zbek tiliga ham o'tib, ...li ...li2 ning sinonimi sifatmda ishlatiladi va «Majolisun-nafois» tilida u bog'lovchisi talaffuz jihatidan *u, vu, yu* kabi ko'rinishlarga ega bo'lgan.

«Majolisun-nafois» tilida sanab o'tilgan hollarda va yana she'r o'rtasida doim u bog'lovchisi ishlatiladi, va bog'lovchisi «Majolisun-nafois» tilida quyidagi vazifalarga ega:

*Sirishki daryosidin girdobg'a tushganin va torjismi ul girdobdin **pechu tobg'a** qolg'onin bu matla'da izhor qilurkim:*

To tushubturmen sirishkim bahridin girdob aro

*Zulfidek sargashta jismim qoldi **pechu tob** aro(95).*

*Masal tavrida bu matla'dek parvarda, **va** orosta, **va** murattab, **va** piyrosta oz voqe' bo'lubturkim, ul hazratning latif tab'idin va sharif zehnidin bosh urubdur (103).*

lekin *b o g' l o c h i s i*. Bu bog'lovchi ma'no va ishlatilishi jihatidan hozirgi o'zbek tilidagi shu bog'lovchisidan farq qilmay, faqat shakl jihatidan farq qiladi. «Majolisun-nafois» tilida bu bog'lovchi *lekin* dan tashqari *valekin, valek, vale, lek* shakllariga ham ega:

*M i r I s l o m G' a z z o l i y — Hujjat ul-islom Imom Muhammad G'azzoliy avlodidindur. Zohir ulumin takmil qildi **valekin** foniy sifat va betakalluf kishi erdi (8).*

Shomi hijronim ko'rub sen mehr otin tutmading

*Va'dai subhi visol aylab **vale** yorutmading (101).*

M a v l o n o Q i r o n i y ham mashhadlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

Garchi Majnun zi g'ami ishq dili purxun dosht,

***Lek** holeki, maro hast kujo Majnun dosht?(48).*

«Majolisun-nafois» tilida **dag't** yuklamasi ham biriktiruv bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin: *men **dag't**-yyz mīn men-i sargashta-dek. (X. 16).*

Bu erda dag't «va» ma'nosida kelgan. Bu so'z bu xilda bog'lovchi vazifasida kelganda *proklitikaga* aylanadi.

«Majolisun-nafois» tilida *ki(m), chu(n), har-qachan (ki/m), ne(v)chunkim, bovujud-i ul-kim, agar, negäki(m), andaki(m)* kabi ergashtiruvchi bog'lovchilari ishlatilgan.

-ki(m) *b o g' l o v c h i s i*. O'zbek tilida *ki(m)* bog'lovchisi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa bog'lovchilardan ajralib turadi. Uning ishlatilish doirasi keng bo'lib, sintaktik vazifasi juda xilma-xildir. *-ki* bog'lovchisi fors va tojik tillarida ham mavjud bo'lib, sintaktik vazifasiga ko'ra o'zbek tilidagi *-ki(m)* bog'lovchisidan kam farq qiladi.

*Bu faqir avval **nazmekim**, o'rganibmen, bu so'nggi matla'dur (3).*

Qani bir mahvash, ang'a so'zu gudozimni desam.

*Qani bir **mushfiqi**, birdam ong'a rozimni desam (103)*

chu(n) b o g' l o v c h i s i. Bu bog'lovchi «Majolisun-nafois» tilida asosan payt ergash gapli qo'shma gap hosil qilgan: bunday qo'shma gaplarda birinchi o'rinda bog'lovchi chun kelib, bog'lovchidan so'ng payt ergash gapdan so'ng bosh gap keladi:

Chorai ishq i nedur, juz sabru mahzun ko 'ngluma,

Chun qila olmas, qiling bir chora majnun ko 'ngluma (108).

har-qachan(kim) b o g' l o v c h i s i. «Majolisun-nafois» tilida *har-qachan(kim)* bog'lovchi vazifasida kelib, payt ergash gaplarni bosh gapga bog'lab keladi:

Har qachonkim kelsa ul sarvi parirux yodima,

Kelmas ul dam jannatu hur xotiri noshodima (105).

hamonanki(m) b o g' l o v c h i s i. Bu ham payt ergash gapni bosh gapga bog'laydi:

Navvobdin biri arz qildikim, Qabuliyni kelturdilar va ul bayt bobida aning bila mutoyaba qilmadilar, **hamonoki** unutuldi (111).

ne(v)chunki(m) b o g' l o v c h i s i. «Majolisun-nafois» tilida sabab gapli qo'shma gaplarda hozirgi zamon o'zbek tilida ishlatilmaydigan *ne(v)chunkim* bog'lovchisidan foydalanilganligini ko'ramiz. Bunday sabab ergash gapli qo'shma gaplarda birinchi o'rinda bosh gap kelib, bosh gapdan sung bog'lovchi *ne(v)chun-kim* bilan boshlangan sabab ergash gap keladi:

Ammo emdi shahrda sokindur. Befoida el bila musohibliq qilmas, nevchunkim, bejihat mashaqqatlarni o 'ziga ravo ko 'rmas(51).

t o b o g' l o v c h i s i. «Majolisun-nafois» tilida qo'shma gaplarda *t o* so'zi bog'lovchi bo'lib kelib, bosh gapga maqsad ergash gapni bog'laydikim, bu holni hozirgi zamon o'zbek tilida uchratmaymiz. *t o* bog'lovchisi bilan bog'langan maqsad ergash gapli qo'shma gaplarda ergashtiruvchi gap bog'lovchi (*to*) bilan boshlangan maqsad ergash gapdan oldin keladi:

Ammo o 'z she 'rin o 'qurda yig 'lamsinib o 'qur, dag 'i o 'zi mutaassir bo 'lub, hardam ulug ' tinar, to bas qilmag 'uncha el tinmas (73).

Bunday gaplarda *to* ning ma'nosi HO'Tdagi *uchun* ga to'g'ri keladi.

andoq-ki(m), ayla-ki(m) va hamul nav'-ki(m) bog'lovchilari.

O'xshatish ergash gap bosh gapga *andaq-ki(m), aylaki(m) va hamul nav'-ki(m),* tipidagi bog'lovchilar bilan bog'langanda, bog'lovchi bilan boshlangan ergash gap bosh gap (yoki ergashtiruvchi ergash gap)dan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin:

Chun Xuroson va Samarqandda ani andoqkim bor, bilmas kishi yo 'qtur (82).

a g a r bog'lovchisi. Bu shart bog'lovchisi *gar* va *ar* shakllariga ham ega:

Dardi holimdin agar g 'ofil, agar ogoh esang,

Hech g 'amim yo 'q sen manga gar dilbaru dilxoh esang (33).

*Hajring o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorim tarhin ul kul birla qil (102).*

«Majolisun-nafois» tilida agar ayiruv bog'lovchisi vazifasida ham kelishi mumkin. Quyidagi baytlarda *yo, xoh, xoh* singari ayiruv ma'nosida ishlatilgan:

*M a v l o n o A y o z i y — g'arib shakllik kishi erdi. Atvori va so'zi xoh nazm, xoh nasrda
g'arib erdi (27).*

(a)garchi b o g' l o v c h i s i. Bu to'siqsizlik bog'lovchi *archi* shaklida ham uchraydi:

*Tarki mehr aylab agarchi bo'ldi jonon o'zgacha,
To tirikman, qilmag'umdur ahdi paymon o'zgacha (92).*

Demak, bu bog'lovchi ham agar singari Navoiy tili uchun bog'lovchi, hozirgi zamon o'zbek tili uchun yuklama ekan.

«Majolisun-nafois» tilida bog'lovchilarning qo'llanish masalasini ko'rib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mir «Majolisun-nafois» tilida teng bog'lovchilar kam qullangan, chunki EO'Tda teng bog'lovchilar arab va fors tillaridan o'zlashgan bo'lib, ularning faolligi hali to'liq oshmagan edi. Shuning uchun ham buyuk bobokalonimiz asarlari tilida faqat *u* hamda *va* teng bog'lovchilari qo'llangan.

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning *lekin, ki(m), chun, ne(v)chunki(m), to, bo vujud-i ul-kim, agar, agarchi, negäki(m), andaki(m)* singari turlari qo'llangan bo'lib, ular ergash gapli qo'shma gaplarning qismlarini bog'lash uchun xizmat qilgan. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning bunday faol qo'llanishini XV asr o'zbek tilining qo'shma gaplari asosan arab va fors tillari qoliplari asosida rivojlanganligini ko'rsatadi.

3. Navoiy asarlarida o'zlashma bog'lovchilarning ko'p qo'llanishi EO'Tda sintaktik qoliplarning rivoj topishp uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

8-§. KO'MAKCHILARNING QO'LLANISHI

Turkiy tillarda ko'makchilar mustaqil so'z turkumlaridan rivojlangan. Lekin mustaqil so'zlarning kumakchilar turkumiga o'tishi uzoq davrlar davomida yuz berdi. Bunday so'zlar dastlab o'z ma'nosida qo'llanishi bilan birga, o'rni bilan ko'makchi vazifasini ham bajaraveradi. Davrlar o'tishi bilan ular o'zining mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchilar turkumiga o'tdi.

Hozirgi turkiy tillarda mavjud bo'lgan ko'makchilarning mustaqil so'z turkumlaridan ajralib chiqishi nisbatan keyingi davrlarda yuz bergan. Bu hol yozma yodgorliklar tilida ham ma'lum darajada aks etgan. Masalan, o'rxun-enisey yodgorliklari tilida ko'makchilar juda kam soni tashkil etadi. XI asrga oid «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk» asarlarida ko'makchilar soni ancha ko'paygan. Yozma manbalarning ko'rsatishicha, XII-XIII asrlardan boshlab turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ham ko'makchilar guruhi yanada kengayib borgan.

Alisher Navoiy davrida iste'molda bo'lgan ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ko'makchilar, 2) ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar.

«Majolisun-nafois» tilida quyidagi ko'makchilar qo'llangan:

yz(r)ä *k o' m a k c h i s i*. Bu ko'makchi *yzä* va *yzrä* variantlarga ega:

*Gulro'ying g'unchadek og'zi va ruxsori **uzra** ko'rganin zarra xurshed yuzida paydo bo'lg'onga xub tashbih qilibdur (98).*

Zulf ochib men telbani oshufta ahvol aylading,

*Qosh **uza** chin ko'rguzub ko'nglumni behol aylading (101).*

Bu ko'makchi keltirilgan misollarimizda ustiga degan ma'noda ishlatilgan. Bu ma'no *yz(r)ä* ko'makchisining birlamchi ma'nosi bo'lib, bu ma'no jo'nalish kelishigi bilan ifodalanishi mumkin.

Bu so'z tarixan *yz* (yuz ya'ni yuza, ust) so'zi va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi – *ra* dan iborat. Shuning uchun ham uning mazkur ma'nosini birlamchi deyish mumkin.

bi(r)la *k o' m a k c h i s i*. Bu vosita ko'makchisi HO'Tda *bilan* dan ma'no va qo'llanish jihatidan farq qilmaydi, faqat shakl jihatidan farq kiladi. Bu ko'makchining «Majolisun-nafois» tilidagi nasrda qo'llanadigan va asosiy shakli *bila* dir.

*G'am tundi bodidin jismi binosi vayron, balki yer **birla** yakson bo'lur ma'nida bu matla' bag'oyat xub ado topibdurkim (101).*

*Netti, bir boqmoq **bila** ko'nglumni xursand aylagil,*

Hajr torin bir zamon vaslingg'a payvand aylagil (102).

cha *k o' m a k c h i s i*. Bu chegara ko'makchisi ma'no, ishlatilish va shakl jihatidan ham HO'Tdagidek qo'llanadi. Bunga sabab –*cha* ko'makchini ayrim olimlar tomonidan qo'shimcha deb qaraydilar. A.M. Shcherbak ham buni jo'nalish qo'shimchasi bilan qo'llangan va yolg'iz holda olib chegara kelishigi (predelnıy padej) deb ataydi.⁷ Aslida –*cha* enklitika bo'lganligi uchun «Majolisun-nafois» tilida ham, hozirgi o'zbek tilida ham qushimcha emas, yordamchi so'zdir. Masalan:

7 Шербак А. М. Грамматика, 109-бет.

*Bu g‘arib xayoldurkim, Sulton Sohirqironniig xotirlarig‘a kelibdur va nazm ahliga zohir qilib erdilarkim, aytsunlar, barcha ayttilar, ammo hech qaysi ul **hazrat**cha ayta olmadilar (102).*

g‘ayr-i ko‘m a k ch i s i. Bu ko‘makchi kelib chiqish nuqtai nazaridan arabchadir. Naviy tilida bu old ko‘makchi *(ba)ʼjuz* ning sinonimii sifatida ishlatiladi:

*Emdi xilvatda dag‘i bir-ikki naql ul hazratning **g‘ayri** nazm latoyifidin ham bitilsa va bir-ikki so‘z sharh etilsa yiroq bo‘lmasay (111).*

magar ko‘m a k ch i s i ko‘makchi. Bu ko‘makchi istisno ko‘makchi bo‘lib *-dan o‘zga* ma‘nosida old ko‘makchi bo‘lib keladi:

*Andin so‘rdilarkim, hargiz bu nav‘ kishi ko‘rubmusen, chun ko‘zida za‘f bor erdi, dediki, ko‘rmaymen, **magar** uch yil mundin burunroq Puli Molonda bir yigit ko‘rdum, ul ham bu nav‘ shu‘badabozliq qildi (27).*

magar tojikcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi *yo‘qsa* dir. (*ma*–inkor yuklamasi, *gar*–shart bog‘lovchi) *magar* ning *-dan o‘zga* ma‘nosida ishlatilishi o‘zbek tiliga tojik tilidan o‘tgan. Tojik va fors tillarida esa *magar* ning bu ma‘noda qo‘llanishi arabchadagi lug‘aviy jihatdan *magar* (ya‘ni, *yo‘qsa*)ga to‘g‘ri keladigan, lekin *-dan* boshqa ma‘nosida.

Alisher Navoiyning ayrim baytlarida *magar* ga *ki(m)* qo‘shilishi ham mumkin:

*Ul jihatdin shuhrat tutmaydur. «Xayol va visol» otlig‘ kitobida bir bayti bor, **magarkim**, mulhimi g‘ayb aning tiliga o‘z she‘ri bobida solg‘ondurkim (10).*

-dek ko‘m a k ch i s i. Navoiy tili uchungina emas, HO‘T uchun ham qo‘shimcha emas, ko‘makchidir. O‘zbek tilida qo‘shimchada *e* unlisi bo‘lmaydi. «Majolisun-nafois” tilida esa, ko‘makchilar singarmonizm qonunlariga bo‘yso‘nmaydi. «Majolisun-nafois” tilida doldan so‘ng doim yo harfi ham yoziladi, demak, doldan keyingi unli *a* emas, *e* dir. *-dek* tarkibida *e* bo‘lgani va uning singarmonistik variantlari bo‘lmagani uchun u o‘xshatish qo‘shimchasi emas, o‘xshatish ko‘makchisidir:

*B o b o S a v d o i y — Bovarddindur. Avval «Xovariy» taxallus qilur erdi. G‘aybi olamdin anga jazaba yettikim, aqli zoyil bo‘lub, eldin chiqib bosh-ayog‘ yalang **devonalardek** tog‘u dashtda kezar erdi (11).*

kibi ko‘m a k ch i s i. Hozirgi o‘xshatish ko‘makchisi kabi «Majolisun-nafois” tilida kibi shaklida qo‘llangan:

Ishq aro hech kim mekingdek zoru shaydo bo‘lmasun,

*Bo‘lsa ham, vah, men **kibi** mahjuru rasvo bo‘lmasun (104).*

yanlig‘ ko‘m a k ch i s i. Bu ham o‘xshatish ko‘makchisi bo‘lib, dek, kibi larning sinonimii sifatida ishlatiladi:

Zarra yanglig‘, ayb emas, ko‘nglumga tushsa iztirob,

Mehri ruxsorig‘a hardam chun erur ko‘zgu hijob(96).

nechyk-kim k o ‘ m a k c h i s i. «Majolisun-nafois» tilida bu ham o‘xshatish ko‘makchisining sinonimii sifatida ishlatiladi:

Nechukkim, *bo‘lsa shikasta va basta va ba‘zi parishon va ba‘zi payvasta ado topti* (111).

Mir «Majolisun-nafois» tilida ko‘makchilarning qo‘llanishini tadqiq qilish quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. «Majolisun-nafois» tilida shaklan ikki turdagi ko‘makchilar ishlatilgan:

a) so‘z ko‘makchilar: *yz(r)ä, dägin, (ba)juz, g‘ayr-i, magar, kibi, yanlīg‘, nechyk-kim, taht-i,*

b) qo‘shimcha ko‘makchilar: *-cha, -dek.*

2. «Majolisun-nafois» tilida turkiy ko‘makchilar: a) *yz(r)ä, dägin, kibi, yanlīg‘, nächyk, -cha, -dek,* b) o‘zlashma ko‘makchilar: *(ba)juz, g‘ayr-i, magar, taht-i* qo‘llangan.

3. Navoiy qo‘llagan ko‘makchlarning *dägin, (ba)juz, taht-i* kabi shakllari HO‘T uchun eskirgan bo‘lsa-da, *yz(r)ä, magar, kibi, yanlīg‘, nechyk-kim* ko‘makchilari faol qo‘llanadi. Demak, Alisher Navoiy tili ko‘makchilarning qo‘llanishi jihatidan byuir qadar tafovutlarga ega bo‘lsa-da, HO‘T adabiy tiliga ancha yaqin turadi

9-§. YUKLAMALAR NING ISHLATILISHI

EO‘Tda iste‘molda bo‘lgan yuklamalar tuzilishi va qo‘llanishi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi: 1) bir guruh yuklamalar tuzilish jihatidan qo‘shimchalarga o‘xshab biror so‘zga qo‘shilib keladi va o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zga yoki butun gapga turli ma‘no ottenkalarini beradi, 2) yuklamalrning ikkinchi guruhi so‘z yoki gap oldidan kelib, mustaqil so‘z sifatida qo‘llanadi. Lekin bunday so‘zlar mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lmasdan, gap mazmuniga turli qo‘shimchaar beradi.

«Majolisun-nafois» tilida quyidagi **yuklamalar** qo‘llangan:

-mu y u k l a m a s i. HO‘Tdagi *mi* yuklamasi «Majolisun-nafois» tilida *mu* shakliga ega:

Faqirni tilab bu bobda takallum qildilarki, — bu baytni oyo ulmu aytib erkin, yo birovmu aning uchun deb erkin? (111).

Nazmda *-mu* ning o‘rni юкоридаги сингари o‘zgarishi mumkin.

oyo yuklamasi ham so‘roq yuklamasi bo‘lib, HO‘Tdagi *a* ma‘nosiga to‘g‘ri keladi:

Faqir, balki ko'proq yorolar taajjub kilurlar erdikim, oyo ul bu nav' sodalig' bila nazm nechuk aytur erkin, ammo g'azallari yomon ermas va devoni ham bordur (20).

xud y u k l m a s i. Bu yuklama *hatto* va *axir* ma'nolarida ishlatilgan:

Ul ulug'roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish, boshim ustiga kelib, mabhasni orag'a soldi (20).

oq y u k l a m s i. Hozirgi o'zbek tilidagi **oq** yuklamasi «Majolisun-nafois» tilida **o'q** shakliga ega:

Ul «Xatoiy» taxallus qilur erdi va Samarqandda—o'q olamdin o'tti, madfani ham anda-o'qdur (111).

dag'ī y u k l a m a s i. Bu yuklama «Majolisun-nafois» tilida *ham* ning sinonimii sifatida qo'llangan.

Ul dag'i vazorat bexudlig'idin musulmonlarga'ajab zulmlar qilurg'a bel bog'lab erdikim, qazo devonidin bevosita siyosatga mustavjib bo'lub va el aning sharridin xalos bo'ldilar (34).

Bu yuklama shevalarda shu shaklda saqlanib, adabiy tilda *da* shakliga kelib qolgan.⁸

ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida kelganidek, **dag'ī** ham biriktiruv bog'lovchisi vazifasida kelishi mumkin.

M u h a m m a d A l i — «G'aribiy» taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg'a tag'oyi bo'lur erdi (34).

ey y u k l a m a s i. Bu ham undov yuklamasi bo'lib «Majolisun-nafois» tilida juda faol qo'llangan:

Ey turki pari paykarimiz, tarki jafo qil,

Komi dilimiz, la'li ravonbaxsh ravo qil (89).

EO'Tdagi yozma manbalarda iste'molda bo'lgan **u n d o v l a r** juda kam. Bu davrdagi undovlar so'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, fikrni jalb etish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

EO'T davrida **va** (vo) so'zi achinish, alam ma'nosini anglatuvchi undov so'z bo'lib, «Majolisun-nafois» tilida *voy vay*, *ey* shaklida faol qo'llanadi:

Bozam baloi jon g'ami on mohpora shud,

Ey voy, on marizki dardash du bora shud (93).

Hozirgi o'zbek shevalarida bu so'z *vay(voy)*, *vay-vay (voy-voy)* shaklida ishlatiladi. So'zlovchining tinglovchi fikrini jalb etish, xitob, murojaat etish ma'nolarini ifodalash uchun

8 Кононов Н.С. Грамматика современного узбекского языка. М.,—Л. 1960.

«Majolisun-nafois» tilida qoʻllangan **ey** undov soʻzining hozirgi oʻzbek tilida ham isteʼmol doirasi keng:

*Ey sabo, yetkur manga sarvi ravonimdin xabar,
Rahm etib bergil manga oromi jonimdin xabar (93).*

Faridun Husayn Mirzo.

ah (oh) u n d o v i . Bu undovda his-hayajon, taajjublanish, afsuslanish kabi maʼnolar aks etib, «Majolisun-nafois» tilida faol ishlatilgan:

*Ohkim, koʻnglum firoqu dard oʻqidin yoradur,
Vahki, bagʻrim tigʻi hijron zaxmidin yuz poradur (97).*

Ayni paytda bu soʻz shu maʼnolarda HOʻTda ham keng qoʻllanadi.⁹

Alisher «Majolisun-nafois» tilida qoʻllangan yuklma, undov va bogʻlamalarning qoʻllanish oʻrinlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalar chiqarishga olib keldi:

1.»Majolisun-nafois» tilida qoʻllangan ayrim yuklamalarning ayrimlari fonetik jihatdan oʻzgarishga yuz tutgan (mu, oq), ayrimlari HOʻTda umuman qoʻllanmaydi (oyo, xud), ayrimlari esa hozirgi oʻzbek tilida shakl va grammatik jihatdan oʻzgarishsiz qoʻllanadi (ham, o,). Demak, Navoiy tili yuklamalrning qoʻllanishi jihatidan HOʻTdan ayrim tafovutlarga ega boʻlsa-da, koʻpgina oʻxshashliklarga ham ega.

2.»Majolisun-nafois» tilida undovlar juda kam qoʻllanagan: *va/vay, ah(oh), ay\ya (oyo)*. Bu undovlar oʻzidan oldin kelgan soʻz yoki soda gaplarga turli modal maʼnolar qoʻshish uchun qoʻllangan. Bu jihatdan Navoiy tili tilimizning boshlangʻich davri – QTTga ancha yaqin turadi.

3.»Majolisun-nafois» tilida bogʻlamalarning qoʻllanishi HOʻT bilan bir xil: *men, sen, biz, siz*. Aytish mumyakinki, XV asr oʻzbek tili bilan HOʻTning fonetik boʻlaklari biri-biridan keskin farq qilmaydi.

1. Mutallibov S.M. Morfolgiya va leksika tarixidan qisqacha ocherklar. Toshkent. 1959. 231-bet.

UMUMIY XULOSA

Yuqorida bayon qshshngan fikr va dalillarga asoslanib, Navoiy asarlari tili haqida quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1. Navoiy ijodi XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiy tilining rivojlanish tarixida juda muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiy tilining o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlari (unlilar konvergentsiyasi,, undoshlar divergentsiyasi, ba'zi morfologik shakl va sintaktik konstruktsiyalar) mana shu davrdan rivojlana bosibjaydi.

2. Alisher Navoiy o'zining barakali ijodi bilan o'zbek mumtoz adabiyotini yuksak pog'onaga ko'tardi, o'zbek adabiy tilining rivoji uchun ham juda salmoqli hissa qo'shdi. Alisher Navoiyning shoh asarlari XV asr o'zbek tilini o'zida aks ettirgan bo'lib, o'zbek tili tarixini o'rganish uchun eng boy manba hisoblanadi.

3. Navoiy tili, hozirgi o'zbek shevalarini ham nazarga olganda asos e'tibori bilan bugungi umumxalq o'zbek tilidan kam farq qiladi, chunki Navoiy tilini hozirgi adabiy tildan ayirib turadigan ko'pgina xususiyatlar hozirgi o'zbek shevalarida saqlangan.

4. Juz'iy morfologik elementlar, grammatik shakl va konstruktsiyalarning umumxalq o'zbek tilida saqlanmay, boshqa turkiy tillarda saqlangan va butunlay saqlanmaganlari ham Navoiy tilida bor.

5. Navoiy tilida hozir o'zbek tilida ham boshqa iurkiv tillarda ham mavjud bo'lmagan, fors-tojik tilidan iqtibos qilingan morfologik element va sintaklik konstruktsiyalar ham bor.

6. Navoiy davridagi o'zbek adabiy tilida qadimgi turk tilida mavjud bo'lmagan undosh tovushlar vujudga kelgan.

7. Ba'zi tovushlar Navoiy tilida qadimgi turk tilida uchramaydigan o'rinlarda ham uchraydigan holatga kelgan.

8. Navoiy ijodi XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiy tilining rivojlanish tarixida juda muhim o'rin tutadi. Unda HO'Tning morfologik qatlami - mustaqil so'z turkumlari singari yordamchi so'z turkumlari ham to'la shakllanganligini ko'rish mumkin.

9. Alisher Navoiy o'zining barakali ijodi bilan o'zbek mumtoz adabiyotini yuksak pog'onaga ko'tardi, o'zbek adabiy tilining rivoji uchun ham juda salmoqli hissa qo'shdi. Uning asarlari XV asr o'zbek tilini o'zida aks ettirgan bo'lib, o'zbek tili tarixini o'rganish uchun eng boy manba bo'lib hisoblanadi.

10. Navoiy tili, hozirgi o'zbek shevalarini ham hisobga olganda, asos e'tibori bilan bugungi umumxalq o'zbek tilidan kam farq qiladi, chunki Navoiy tilini hozirgi adabiy tildan ayirib turadigan ko'pgina xususiyatlar hozirgi o'zbek shevalarida saqlangan.

11. Navoiy tilida qo'langan ko'makchilar mohiyat e'tibori bilan HO'Tga ancha yaqin; ko'makchilarning ba'zilar o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lmasa-da, aksariyat qismi tilimizning lug'at boyligidan o'rin olgan.

12. Ko'makchilar QTTda shakllangan bo'lib, tilimizning keyingi bosqichlarida evolyutsion taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Navoiy davriga kelib uning soni o'zlashma so'zlar orqali boyigan. Shu bilan birga, turkiy ko'makchilar ba'zi fonetik qo'rinishlarga ega bo'lgan holda EO'T lug'at fondida mavjud bo'lgan.

13. Alisher Navoiy tilida yuklama, undov so'z hamda bog'lamalar ham oz bo'lsa-da iste'molda bo'lgan; yuklamalarning ayrimlari hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydi, biroq ularning muqobili tilimizda mavjud. Undovlarning aksariyati hozirgi tilimizda faol iste'molda. Bog'lamalar HO'T bilan XV asr o'zbek adabiy tilida bir xil qo'llangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2012-yil 20-yanvar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustqillik ostonasida. Toshkent 2011. – B. 400–403.
4. Abdurahmonov G'. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 2008.
5. Abdurahmonov G'. Tarixiy sintaksis//O'zbek tili tarixiy grammatikasi kursi bo'yicha materiallar. Toshkent 1974.
6. Abdurahmonov G'. Tarixiy sintaksis//O'zbek tili tarixiy grammatikasi kursi bo'yicha materiallar. Toshkent 1974.
7. Abdurahmonov G'. Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. Toshkent 1984.
8. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 20 tomlik. XIV tom. Toshkent 2006.
9. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin//O'zbek adabiyoti bo'stoni. Toshkent 1989.
10. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent 1983.
11. Devonu lug'otit turk. Inleks-lug'at (G'.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida) Toshkent 1967.
12. Jumaniyozov. R. "Qalam" so'zining yozma adabiyotda qo'llanilishi// O'zbek tili va adabiyoti masalalari 1958.
13. Ishaqov F. Gulxaniyning "Zarbulmasal"asari. Toshkent 1976 -228.
14. Karimov A. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. Filol.fan. nom. diss. Toshkent 1973.
15. Matg'oziyev A. XIX asr o'zbek tilining morfologiyasi. Toshkent 1977.
16. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. Toshkent 1950.
17. Muhammad Solih. Мажолисун-нафоис (Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev). // O'zbek adabiyoti bo'stoni. Toshkent 1990 - 336 s.
18. Nazarova X. Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at. Toshkent "Fan" nashriyoti 1973.
19. Devonu lug'otit turk. 3 tomlik Toshkent 1960-1963.
20. Sodiqova M.S. Hozirgi o'zbek tilida sifat. Toshkent 1974.
21. O'zbek adabiyoti. 4 tomlik. III tom. Toshkent 1959 -290 s.
22. Umarov 3. XV asr tilida unlilar//O'zbek tili va adabiyoti 1982 № 6, -45-46.

23. Hasanov F. «Kelurnoma» Tashkent 1978.
24. Hafizova A. . "Kelurnoma" leksikasiga doir//O‘zbek tili va adabiyoti 1988 № 5 -s. 68-71.
25. Shomaqsudov A. Muqimiy satirasining tiliga doir//Sharq yulduzi 1973 -S. 102-107.
25. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent 1983 -656 S. II tom. Toshkent 1983 -642 s; III tom. Toshkent 1984 -622 s. IV tom. 1985. - 634 s.

Elektron manbalar

1. http://navoi.natlib.uz/navoi_natlib_default.html
2. Fanning o‘quv uslubiy majmuasi. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>. Filologiya. Sotsiolingvistika.
4. Fanning o‘quv uslubiy majmuasi. <http://www.ziyonet.uz>
5. <http://www.ziyonet.uz>. Filologiya. Sintaksis.
6. <http://www.edu.uz>. Filologiya. Sintaksis.
7. <http://www.wortschatz.uni-leipzig.de/>
8. <http://www.sfb441.uni-tuebingen.de/~wunsch/nv/release/>
9. Oksford leksikografiya jurnali BC
<http://ijl.oxfordjournals.org/content/vol18/issue3>/<http://ijl.oxfordjournals.org/content/vol17/issue2/>
10. <http://www.philology.ru/linguistics1/>
11. © Norbert Fries, Online Lexikon Linguistik. Berlin 2006
<http://fries.anaman.de>
12. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
13. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>